Для восстановления раннего состояния компьютера, запустив мастер восстановления, следует убедиться, что выбран нужный пункт. Затем нужно нажать далее. После этого в календаре выбрать тот день, на который система была полностью работоспособной (дни, имеющие точки восстановления, отмечены жирным шрифтом) и нажать далее. Теперь точка восстановления выбрана, но сам процесс восстановления еще не начался: перед началом восстановления необходимо закрыть все файлы и программы. Убедившись, что все программы и файлы закрыты и выбрана нужная точка восстановления, нажать кнопку далее. Через некоторое время компьютер будет перезагружен с настройками, существовавшими на момент создания контрольной точки. При этом все созданные пользователем документы, разумеется, останутся на своем месте.

### **6. Практическая работа «Обзор служебных программ»**

*Цель:* Познакомить с программами для обслуживания жёсткого диска. Обзор служебных программ.

#### **Служебные программы**

Операционная система Windows имеет целый ряд служебных встроенных программ, при помощи которых выполняется обслуживание компьютера.

#### **Запуск служебных программ:**

Пуск – Все программы – Стандартные – Служебные-...

*Выполнить:*

*Очистка диска:*

1. Выполнить Пуск>Все программы>Стандартные>Служебные> Очистка диска.
2. Выбрать диск С: Нажать Ок.
3. Удалить выявленные ненужные файлы.
4. Запустить очистку щелчком на кнопке Начать.

*Дефрагментация диска:*

1. Выполнить Пуск>Все программы>Стандартные>Служебные> Дефрагментация диска.
2. Выбрать диск С: Нажать Ок.
3. Вывести на экран отчёт о проделанной *Дефрагментации*.

*Восстановление системы:*

1. Выполнить Пуск>Все программы>Стандартные>Служебные> Восстановление системы.



## **2-TOM, 3-SON**

2. Выбрать пункт создания точки восстановления.
3. Нажать командную кнопку Далее.

*Проверка диска:*

4. Выполнить Пуск>Все программы>Стандартные>Служебные> Проверка диска (ScanDisk).
5. Выбрать метод проверки , включив переключатель Стандартная или Полная;
6. Выбрать проверяемый диск щелчком мыши, Для выбора нескольких дисков используется клавиша Shift.
7. Установить флажок Исправлять ошибки автоматически.
8. Запустить проверку щелчком на кнопке Запуск.

### **7. Контрольные вопросы:**

1. Что такое жесткий диск?
2. Какие служебные программы существуют и их назначение?
3. Как и для чего проводится проверка диска?
4. Что происходит при выполнении восстановления системы?
5. Какие действия выполняет дефрагментация диска?

### **6. Домашнее задание**

Читать конспект. Выписать все существующие названия и обозначения жёсткого диска и повторить все меры профилактики его работы.

**Примеры ответов учащихся:** Накопитель на жёстких магнитных дисках, НЖМД, Жёсткий диск, ЖД, Хард диск, Hard disk, HDD, Винчестер, Винт, Магнитная память и другие.







2-TOM, 3-SON

Практическая работа: «Служебные программы».

Запуск служебной программы



Очистка диска




Дефрагментация диска



Проверка жёсткого диска



Архивация диска



Восстановление системы



9. Литература:

1. Т. Касимова "Информатика"
2. А.Саттаров «Информатика и информационные технологии»



2-TOM, 3-SON

ADABIYOTDA OBRAZ RUHIYATINING VOQEALAR RIVOJIDAGI  
AHAMIYATI

*Ozodova Ullibibi Jumanazar qizi*

*ToshDO'TAU, o'zbek tili va adabiyoti*

*mutaxassisligi, 1-kurs magistranti*

*ozodovaulibibi@gmail.com, +998910030832*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada globallashuv, global muammolar, ularning adabiyotda aks etishi masalalari yoritilgan. Global muammo sifatida ko'rilgan ruhiy xurujlarning o'zbek adabiyotida, nasrida aks etishi qiyosiy-tahliliy o'rganilgan. Maqolada "Tushda kechgan umrlar" va "Ufq" romanlari qahramonlari tahlil etilib, psixologik xususiyatlari o'rganilgan.*

Bugungi kunga kelib hayotimizning har jabhasida duch keladigan, nutqimizda faollashgan so'zlardan biriga aylanib ulgurgan "global" so'zining lug'aviy ma'nosiga diqqat qaratish o'rinli. Global – 1) butun Yer sharini qamrab oluvchi; 2) har tomonlama, to'liq, universal<sup>1</sup> kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z nutqimizda ham ijobiy, ham salbiy ma'nolarda, ya'niki, global muammolar, madaniyatlar qorishishi, bir xalqning boshqa xalqlar bilan singishib o'z milliy madaniyatining yo'qotishi (ommaviy madaniyat) va shu kabi salbiy tushunchalarni izohlashda qo'llansa, ikkinchi ma'nosi umuminsoniy tushunchalar, qarashlar, umuman inson va inson omili masalarini yoritishda qo'llaniladigan ijobiy ma'nosini aytish mumkin.

Ilm-fan, texnikaning globallashuvi bugun butun Yer sharini bitta kichik uydek tasavvur qilish imkonini berdi, negaki diydorlashish uchun makon va zamonning moneligi yo'qoldi. Istagan vaqtingizda dunyoning boshqa bir burchagidagi odam bilan ko'rishib suhabat qurish imkoniyati mavjud. Dunyoni bir burchagidagi kichik shaharda nimadir sodir bo'lsa, buni darhol bilish, insonlarni xuddi bir uyda yashayotgan xonadoshlardek his qilishlariga sabab bo'lyapdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa doimiy xushyorlik, ziyraklik va juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni qabul qilish va saralash kabi to'xtovsiz aqliy faoliyatni talab qilmoqda. Globallashuv har yerda, har turda hayotimizning ajralmas, zaruratga aylangan bir narsa ko'rinishini olmoqda.

<sup>1</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil





## 2-TOM, 3-SON

Globalashuv davrida dunyo xalqlarining madaniyati, san'ati va falsafasi qorishib, tobora yaxlit qiyofa kasb etib bormoqda. Jozibali ko'ringani bilan bu jarayon umummadaniyatga singib ketishining oqibatida yaxshilik yo'qligi va u milliy ruhni o'ldirishi, asrlik xalq madaniyatiga rahna solishi ko'p ta'kidlanadi. Bunday vaqtda xalq adabiyotining ahamiyati, u millat ruhini o'ziga singdirib yasuvchanligini ta'minlash xususiyatining mohiyati o'rta chiqadi. Ammo adabiyot faqat bir xalq uchun emas balki butun insoniyat uchun yaratilgan, barcha uchun qiziq bo'lishi kerak emasmi? Biror xorij xalq adabiyoti bilan tanishish, shu xalq turmushini, dunyo qarashini va milliyligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon beradi. Bu yerda faqat yozuvchi mahorati bo'libgina qolmay, xalqning boy madaniy merosi ham o'quvchilarning qiziqishi ortishiga va ko'p o'qishli asar bo'lishini belgilaydi. Bundan tashqar global masalarning yoritilishi masalasi ham aynan shunday har xalq uchun qiziq. Chunki muammo bir, lekin bu muammoni ko'rish, yechish usuli va yechimi xalqning yuqorida ta'kidlangan muhim sifatlaridan kelib chiqib turlicha. Shu o'rinda ayni fikrni ilgari surgan mashhur rassom va yozuvchi Dino Butssatining "Yaxshi do'stlar" nomli suratini keltirib o'tish o'rinli, menimcha. Rasmda aks ettirilgan turfalik, xalqlardagina emas, reaksiyalarda, turmush tarzida hamdir shunga qaramay ularni biro oraga keltirilgan, birlashtirilgan do'stlik masalasi ham bejizga berilmagan.





## 2-TOM, 3-SON

Bu rasmdagi insonlar uchun umum nuqta “do‘stlik” deb qaralgan bo‘lsa, adabiyotda bu umum nuqtani inson deb qarash o‘rinli. Zero, adabiyot hayotdan ilhomlanib yaratiladi, u insonlar, taqdiralar haqida gapiradi va shuning uchun u ibrat ham beradi, tarbiyalaydi. Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida nasrda yaratilgan xalq xarakteristikasinigina singdirish bilan cheklanib qolmay global muammo va masalarni o‘rtaga olib chiqayotgan. O‘zbek xalqi uchun bu qanday darajada muammo bo‘lib, yuzaga kelish sabablari-yu ma’lum ma’noda oqibatlarini, muqobil yechimlari xususida fikrlar yuritilgan asarlar mavjud. Urush mavzusidagi asarlar misolida ko‘raylik.

Urush mavzusi azaldan badiiy adabiyotning faol mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Ushbu motiv G‘arb va Sharq adabiyotida birdek qalamga olingan bo‘lsa-da, turli mintaqa mualliflarining dunyoqarash va yondashuvlarida ma’lum farqlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu asosan, qahramon ruhiyati bilan bog‘liq tarzda kechishini alohida ta’kidlash joiz<sup>2</sup>. O‘zbek adabiyotida urush mavzusida yaratilgan asarlar: “Tushda kechgan umrlar”<sup>3</sup>, “Ufq”<sup>4</sup>, “Chinor”<sup>5</sup> va boshqalar. Bu asarlar qahramonlari hayoti misolida urushning o‘zbek xalqiga keltirgan zarari, urush davridagi ahvoli anglashiladi. Xuddi shunday boshqa davlatlar adabiyotida ayni mavzudagi asarlar shu kabi ma’lumotlarni beradi. Urush mavzusining global muammo sifatida ko‘rilib adabiyotda akslantirilishining sababi insoniyatga yetkazgan zararidan deyish mumkin. Urush faqat jismlarni qurbon qilmaydi, balki, jisman tirik ruhan o‘lik insonlarni ham yaratilishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida misol tariqasida nomi tilga olindan asarlar qahramonlar hayoti bu fikrimizning yorqin dalilidir. Bu asarlardagi qahramonlar urushdan tirik qaytishdi, ammo, ular ortiq avvalgidek emasdilar, tirkalar orasidagi o‘liklardek edilar. Urush shunday baloki, odamni odamlardan chiqaradi. O‘zing istamagan holda boshqacha fikrlashga majbur bo‘lasan. Urush dahshati haqida “Tushda kechgan umrlar” romanining “Rustanning birinchi kundaligidan” deb nomlangan qismida oddiy askar Xayriddin bosh qahramon Rustamga shunday deydi: “Bilasizmi, jo‘ra... o‘ylab qaragam, urush teskari haqiqat, degani ekan. Odam bo‘lgining kelsa, shafqatsiz bo‘l. O‘lgining kelmasa, o‘ldir. Qiziq-a, jo‘ra...” O‘tkir Hoshimov bu holga o‘zining boshqa bir asari “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ning “Urushlar haqida” deb nomlangan bobida alohida to‘xtalgan:

“Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki,

<sup>2</sup> Orifjon ODILOV “Antique world” akademiyasi dotsenti. “Urush haqiqati” maqolasi. 26-iyul 2018-yil

<sup>3</sup> O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti: Toshkent-2002

<sup>4</sup> Said Ahmad “Ufq” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti: Toshkent- 1976

<sup>5</sup> Asqad Mu‘tior “Chinor” G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti: Toshkent-1969



## 2-TOM, 3-SON

urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo'lmaydi!", yoki "...Urush, hatto haqiqatning qiyofasini ham teskari qilib qo'yadi. Urushda haqiqat bo'lmaydi!"<sup>6</sup>. Ayni shu fikr bu muammoning global ekanligini isbotlaydi, bu insoniyat fojiasi ekanligi izohlanadi.

"Tushda kechgan umrlar" asarining bosh qahramoni Rustam nega o'ldi? "Ufq"da ota nega o'z farzandini o'ldirmoqchi bo'ldi? yaqinda yaratilgan Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida ham ota o'z qizini o'ldirish holati kuzatiladi, voqealar nega bunday yakun topdi? Agar hammasini sabab-natija zanjiriga tashlaydigan bo'lsak, Rustam yomon fe'li, darg'azabligi uchungina o'lmaganini, ota faqat el-yurt oldida qochoqning otasi nomini eshitmaslik uchun, nomusdan o'z o'g'liga o'q uzmagani, qizini o'ldirishga ham faqat nomus sababchi emasligini ko'rish mumkin. Biz tilga olgan qahramonlarni bir nuqtada birlashtirayotgan narsa - urush. Urush ulardagi insoniy sifatlarning yo'q bo'lishiga, ruhlarida tuzalmas yaralar paydo bo'lishiga, kuchli qo'rquv va kuchli ruhiy, jismoniy charchoq oqibatida paydo bo'lgan depressiyaning rivojlangan vaqti- vaqti bilan o'zini eslatib turuvchi ilmiy tilda "ruhiy huruj" (психический срыв)lar najjasi deyish o'rinli.

Masalan "Rustamning oxirgi kundaligida" qismida: "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Ertabahordan bo'tana bo'lib, shosha-pisha, qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko'milib yotadi... Yeru ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oqzulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi.

...Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi...

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga?! Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidadir? Nima farqi bor?! "Donolar hayotni kuzaturlar jim..."<sup>7</sup>. Qahramonning ruhiy holatini ayanan shu ichki suhbatida asosida tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi xatboshidayoq qahramonda pessimistik kayfiyat hukmronligi anglashiladi, matn mazmuni taslim bo'lgan, kurashdan charchagan va dunyoni rangsiz oq-qora tasvirlarda ko'ryotgan odam fikrlariga o'xshaydi.

Ikkinchi xatboshi esa to'g'ridan- to'g'ri so'ng nuqta, o'lim haqidagi fikrlari bo'lib, u tabiatni emas balki o'zini, ayni holatini tasvirlayotganini tushuniladi. Bu aynan yuqorida

<sup>6</sup> Orifjon ODILOV "Antique world" akademiyasi dotsenti. "Urush haqiqati" maqolasi. 26-iyul 2018-yil

<sup>7</sup> O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: Toshkent-2002



## 2-TOM, 3-SON

nomi tilga olingan depressiya alomatlaridan biri. Keyingi xatboshida qahramon o'z yoshini eslashga urunadi, bu yuqoridagi aytilgan fikrni dalillaydi, u eng boshdan o'zi haqida gapiryotganini, endi poyoniga yetish arafasidagi umri aslida qancha ekanligini aytib o'tmoqchi va eng muhim belgi u eslay olmaydi, eslashga ham urunmaydi. Bu fikrlar tarqoqligini, xalq tili bilan aytganda "kallasi joyida emas"ligini ko'rsatadi. Aynan shunday ruhiy holatni boshdan kechiryotgan odamalarda o'z xatti-harakatlarini boshqara olamaslik, jazavaga tushish, tez g'azablanish kabi alomatlar uchraydi. Asar syujetlarida bu alomatlariga mos keladigan xatti-harakatlarni Rustam obrazida mavjudligini ko'rish mumkin. Bu fikr Rustamning o'z joniga qasd qilganligini yoqlasada, muhim bir jihatni unutmaslik kerak, oynadan o'z ixtiyoriga ko'ra sakramagan, balki, ruhiy huruj boshlanib qolgan va o'z xatti-harakatlarini boshqara olamaydigan holatga tushib qolib, jazavadan behosdan yoki anglamagan holatda sodir bo'lgan bo'lishi mumkinligini psixologik jihatdan o'rganilgan xulosalarga tayanilgan fikr deyish mumkin. Bu fikrni yoqlovchi yana bir sabab Rustam kurashuvchan, hayotni sevgan, hayotdan umidlari, maqsadlari katta bo'lgan obraz edi, uni hayotga bog'lab turgan, sevganlari bor edi, u ular bilan qurishni reja qilgan baxtli hayot xayollari bilangina jang-u jadallarda tirik qolish va qaytish uchun kuch topgan odam edi.

Ikkinchi asar "Ufq"dagi qochoq o'g'il Tursunboy va otasi Ikromjon obrazlarini tahlil qilsak, Ikromjon urushda qatnashgan bir oyog'ini urushda yo'qotgan inson, o'g'li Tursunboy urushga ketib qochib kelgan, uzoq vaqt berkinib hayvonlardek kun ko'rishga majbur qolgan obraz. Bu ikki insonni biri Rustam kabi daxshatlarga guvoh bo'lgan ammo yaqinlari, mahalladoshlarining uni qahramon deb alqashlari natijasida (ya'ni depressiyani yo'qligi sababli) odatiy turmush tarzida yashayotgan odam edi, uning uchun urushdagi fidokorliklariga qiymat berayotgan atrofdagi insonlarni yo'qotish, o'z farzandini yo'qotishdanda og'irroq ekani, uning xatti-harakatlarida sezilib turadi. Birinchi bor o'g'lining qochganini eshitgandagi holatini tasvirlanganda, uning o'zini yo'qotib qo'ygani va bu xabarni yetkazgan odamga tashlangani unga kuchli ruhiy zarba berilganini anglatrsa, ayolining o'limi ikkinchi zarba bo'lgan deyish va o'g'liga yig'ilib borgan nafrat o'q uzishga majbur qilganini, uni urushda agar o'ldirmasa, buni o'ldirdigan dushman kabi kayfiyatda bo'lishi va o'q otishi bularni ruhiy jihatdan sog'lom fikrlay olyotgan bir inson kabi harakat qilgani bilan asoslash mumkin. Ammo, Abdulla Qahhorning romani o'qib ota o'q uzganida, tegmaganida "Xayriyat, tegmadi" so'zini qo'shishishi kerak ekanligini aytib tahrirlashi, bu obrazdagi ongli ravishda ammo istamasdan bu ishni qilyotganini, ko'zining qorasi bo'lgan yagona farzandiga nisbatan yuragining tub-tubida hali hamon mehr va shavqat mavjudligini ko'rsatadi. O'g'li Tursunboy esa hayvonlarga xos turmush tarzi go'yo uni ham hayvonga, insoniy sifatlari yo'qolib borayotgan inson qiyofasidagi mahluqqa aylanib qolganini onasiga





## **2-TOM, 3-SON**

bo'lgan munosabatlarida ko'rish mumkin. Bir narsa juda qiziq agar bu asarni bir bolajonsevar xalq vakili bo'lgan o'zbek emas, mutlaqo boshqa millat vakili yozganda ham ota "xayriyat, tegmadi" deyolarmidi? Asarning kuchi shundaki shu nuqtagacha ko'z oldingizda yahlit gavalangan obraz qiyofasi bittagina so'z bilan o'zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, ruhiy sog'lom bo'lish, ruhiy huruj, sabablari va oqibatilari haqida berilgan obrazlar misolida yaqindan tanishish, o'z va yaqinlarining salomatliklariga nafaqat jismoniy balki ruhiy salomatlikka ham e'tibor qaratish lozimligini o'rganish mumkin. Satistik ma'lumotlarga qaraganda so'ngi 3 yilda o'n ming bemorning 56,4% kasallikdan erta xabardor bo'lib, davolanishni boshlashgan, ammo bu mutloq tuzalishni anglatmaydi. Bu ma'lumotlar muammoning naqadar dolzarb va global ekanligini ko'rsatadi. Adabiyot insonlarni bir hayot yo'lini emas balki bir vaqtning o'zida bir necha insonlar hayot yo'lini yashash, his etish imkoniyatini beradigan, qarorlar natijasini taxminiy baholash ko'nikmasini shakllantiradigan yagona vositadir. Aynan shuning uchun adabiyot, san'at insonning ruhini davolaydi, ongini tozalaydi. Yuridagi asarlar qahramonlari holari va harakatlarini psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali, bizga mantiqsiz tuyulgan ba'zi hodisalarning javobini olishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil**
- 2. Orifjon ODILOV "Antique world" akademiyasi dotsenti. "Urush haqiqati" maqolasi. 26-iyul 2018-yil**
- 3. O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: Toshkent-2002**
- 4. Said Ahmad "Ufq" G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: Toshkent- 1976**
- 5. Asqad Muxtor "Chinor" G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti: Toshkent-1969**
- 6. Anvar Suyun "Adabiyot- kuchga aylansa..." maolasi. 2019-yil**



## 2-TOM, 3-SON

**Geologiya-qidiruv ishlarida quduqlarni burg'ilash usullari va zamonaviy burg'ilash mashinalari, tog' jinslarini emiruvchi asboblarni tanlash.**

**Rahimxonov Ixtiyorxon Isroilxon o'g'li.**

Geologiya fanlari universiteti "Foydali qazilma konlari geologiyasi" fakulteti  
Geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi kafedrası 3-bosqich talabasi.

E-mail: [ixtiyorxonr@gmail.com](mailto:ixtiyorxonr@gmail.com)

**Muhammadaliyev Muhammadziyo Muhammadibrohim o'g'li.**

Geologiya fanlari universiteti "Neft va gaz konlari geologiyasi" fakulteti  
Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi kafedrası 3-bosqich talabasi.

E-mail: [muhammadziyomuhammadaliyev@gmail.com](mailto:muhammadziyomuhammadaliyev@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** Burg'ilash, burg'ilash qudug'i, tog' jinslar, tog' jinslarini emiruvchi asbob, burg'ilash usullari, mexanik burg'ilash, zarbali burg'ilash, tebranma burg'ilash.

Hozirgi kunda geologiya-qidiruv ishlari xalq xo'jaligida muhim tarmoqlardan biri bo'lib kelmoqda. Keng ma'noda aytganda geologiya-qidiruv ishlari sanoatni rivojlantiruvchi sohalardan biri hisoblanadi.

Geologiya-qidiruv ishlarining geologiya sohasida eng ko'p va aniqlik darajasi bo'yicha etarli ma'lumotlarni beradigan asosiy tarmoqlardan biri bu quduqlarni burg'ilash yo'nalishidir.

Quduqlarni burg'ilash deb-tog' jinslarida silindrik bo'shliq hosil qilish uchun bajaradigan ishlar to'plamiga aytiladi bu silindrik bo'shliq burg'ilash mashina va mexanizmlari yordamida hosil qilinadi. Burg'ilash qudug'i er ostidagi silindrik shakldagi, diametri uning chuqurligiga nisbatan ancha kichik bo'lgan tog' lahimidir. Burg'ilash quduqlarining diametri 26 mm dan 1200 mm gacha bo'ladi [3].


Quduqm konstruksiyasi quduq og'zi-ustki qismi, quduq tubi-pastki qismi va quduq devorlari-yon tomonlaridan iborat (1-rasm). Quduqlarni tavsiflovchi asosiy elementlar-uning diametri, chuqurligi va yo'nalishi [4].

**Quduqlarni burg'ilash usullari.** Quduqlarning bir-biridan o'zining fizik mohiyati bilan tubdan farq qiladigan usullar bilan burg'ilash mumkin. Quduqlarni burg'ilashning mexanik, fizik va kimyoviy usullari mavjud.



## 2-TOM, 3-SON

Burg'ilashning mexanik usullari turli maqsadlarda foydalaniladigan quduqlarni burg'ilashda qo'llaniladi. Burg'ilash maxsus tog' jinslarini emiruvchi asboblar yordamida amalga oshiriladi va bu orqali kerakli quduq diametrlarini hosil qilish imkoni yaratiladi.



1-rasm. Burg'ilash qudug'ining elementlari: a va b-kernsiz va kolonkaviy burg'ilash; d-quduq elementlari:

1-quduq og'zi; 2-quduq devori; 3-quduq tubi; 4-kern; 5-qoplama quvuri bilan mustahkamlangan quduq devori;

L- quduq uzunligi; D, D<sub>1</sub>, D<sub>2</sub>, D<sub>3</sub>- quduq devori diametrlari [4].

Mexanik burg'ilash usulining

afzalliklari:

- Geologik kesimni tuzish uchun va har tomonlama o'rganish uchun tog' jinslari namunalarni tanlash imkoniyatining yaratilishi;
- Suvli qatlamlar, neft va gaz garizontlarini ochish va o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratilishi;
- Ma'lum bir yo'nalishda quduqlarni burg'ilash imkoniyatining mavjudligi.

Ushbu afzalliklar bilan bog'liq holda, tog' jinslarini emiruvchi asboblar bilan mexanik burg'ilash geologiya dala amaliyotida keng qo'llanilmoqda [1].

Mexanik burg'ila shning kamchiliklari:

- Tog' jinslarini emiruvchi asboblarning ishchi qisimlarining emirilishi va ularning burg'ilash jarayoni mobaynida almashtirishning iloji yo'qligiga olib keladi;
- Agar dvigatel er yuzasida joylashgan bo'lsa, quduq chuqurligi oshishi bilan foydalaniladigan energiyaning koeffitsienti kamayib boradi [1].

Mexanik burg'ilash usullarining o'z navbatida bir nechta turlari mavjud. Bular:

- Aylanma
- Zarbali
- Tebranma (вибрацион)

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan burg'ilash usullarida istalgan qattiqlikdagi tog' jinslarini quduq tubida butunlay yoki quduq tubida halqa bo'ylab-kern hosil qilgan holda burg'ilash ishlarini amalga oshirish mumkin.





## 2-TOM, 3-SON

Bu usullardan keng tarqalgani aylanma burg'ilash bo'lib, bunda tog' jinslarini emiruvchi asboblarga aylanma harakat maxsus shpindel yoki rotor yordamida burg'ilash quvurlari kollonasi yoki zaboy dvigateli orqali beriladi [2].

Aylanma burg'ilash usuli turli mustahkamlikka ega bo'lgan tog' jinslarini burg'ilashda qo'llanilishi mumkin. Ushbu usul orqali yumshoq tog' jinslarida diametri 70-1500 mm gacha, chuqurligi 50 metrdan bir necha yuz metrgacha burg'ilash ishlari amalga oshirilishi mumkin. Eng chuqur quduq 12260 m aylanma burg'ilash usuli orqali burg'ilangan [1].

Aylanma burg'ilash asosan olmosli va qattiq qotishmali karonkalar, hamda sharoshkali, olmosli va kurajchali va boshqa dolotolar yordamida amalga oshiriladi [4].

Zarbali burg'ilash usuli sochma konlarni geologik razvedka qilishda, gidrogeologik va katta diametrdagi turli xil geologiya qidiruv ishlarini amalga oshirish maqsadida texnik quduqlarni burg'ilashda ishlatiladi [4].

Zarbali burg'ilashda, tog' jinsini emiruvchi asbob quduq o'qi yo'nalishida jinslarga qisqa muddatli zarbali kuchi ta'sirida ilgari lab quduq tubiga botib boradi. Bu bilan o'q yo'nalishdagi statistik kuchaytiruvchi kuch quduq tubidagi jinslar bilan kontakti juda kichik ochiqlikda bo'lganida, kontakt hosil qilish uchun kerak bo'ladi. Burg'i asbobi quduq tubiga zarba berganidan so'ng, ko'tarilib, biror burchak bilan navbatdagi zarbani jinslarning boshqa joyiga berish uchun uriladi. Asbobni burish uchun zarur bolgan buruvchi moment deyarli kichik o'lchamga ega [1].

Tebranma burg'ilash usulida quduq zaboyida tog' jinslarini parchalash uchun tebranma mashina hosil qilinadigan yuqori chastotali mexanik harakat qo'llaniladi. Tebranma (вибрацион) burg'ila usuli yumshoq tog' jinslarida chuqur bo'lmagan quduqlarni burg'ilash uchun ishlatiladi [4].

Tebranma (вибрацион) burg'ilashda bajariladigan asosiy ish jarayoni vibratorlar orqali amalga oshiriladi. Tebranma (вибрацион) burg'ilash usulining kamchiliklari chuqur bo'lmagan quduqlarni burg'ilashda ishlatilishidir. Bunda quduq chuqurligi 25–30 m. Ushbu burg'ilash usulining afzalliklari yuqori sifatli kern namunasini olish imkoniyatining yaratilishidir [2].

Tebranma burg'ilash usuli bilan burg'i quduqlarining diametrlari 60 mmdan 219 mmgacha bo'ladi. Tebranma burg'ilashda jinslarni parchalovchi asbob sifatida vibrozondlar, gruntonoslar va vibrojelonkalar ishlatiladi. Tog' jinslarini emiruvchi asboblar jinslarning fizik-mexanik xususiyatlariga qarab tanlanadi [4].

Quduqlarni burg'ilashda tog' jinslarini emirishning fizik usullaridan amalda keng qo'llaniladiganlari termik, termomexanik, elektrotermik va gidravlik usullaridir.



## 2-TOM, 3-SON

Termik (olovli) burg'ilash usulida tog' jinlarini parchalash ularning yuza qismiga yuqori harorat bilan termik ta'sir o'kazish orqali amalga oshiriladi. Termik burg'ilash usuli geologiya-qidiruv ishlarida qo'llanilmaydi. Bu usul asosan burg'ilash va portlatish ishlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi [1].

Bugungi kunga kelib geologiya sohasi uchun kerakli bo'lgan zamonaviy burg'ilash mashinalari va tog' jinlarini emiruvchi asboblari jahon bozorida yaxshi natijalar egallab kelmoqda. Jumladan, "DBC Makina" (Turkiya), Atlas Copco (Shvesiya), Boart Longear, Cetco, SChRAMM (AQSh), Sandvik (Finlandiya), Terekalmaz va FORDIA (Kanada) kompaniyalari hozirgi kunda jahon amaliyotida yangi takomillashgan burg'ilash texnikasi va texnologiyalari etakchi orinlarni egallab kelmoqda. Atlas Copco (Shvesiya), Boart Longear, Cetco, SChRAMM (AQSh), Sandvik (Finlandiya), Terekalmaz va FORDIA (Kanada) kompaniyalari olmosli koronkalarini ishlab chiqarishda koronka matrisasining ichki va tashqi diametrini tez eyilib ketmasligi uchun ichki va tashqi diametri chetlari bo'ylab kalibrlash maqsadida sifatli tabiiy olmos toshlarini yoki polikristalli olmosli qo'yilmalarni ishlatishadi. Matrisa ichki qismiga esa deyarli bir xil o'lchamdagi sun'iy olmos zarrachalarini ishlatishadi. Hozirgi vaqtda ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan sun'iy olmosli toshlar o'zining mustahkamlik xarakteristikasi bilan tabiiysidan qolishmasligini takidlab o'tish zarur [3].

Bugungi kunda burg'ilash ishlari amaliyotida qattiqligi VIII-XII toifadagi tog' jinlarida asosan olmosli karonkalar bilan quduqlarni burg'ilash ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari qattiqligi V-VII toifadagi tog' jinlarida ham burg'ilash ishlarini amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy burg'ilash mashina va mexanizmlari, hamda zamonaviy tog' jinlarini emiruvchi asboblarni tanlashdan avval burg'i qudug'ining qayday maqsadda qo'llanilishi, quduq o'lchamlari va burg'ilanayotgan tog' jinlarining fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganib chiqish lozim. Ushbu ishlar bajarilib bo'lingach, geologiya qidiruv ekspeditsiyalari amaliyotida samarali burg'ilash usullarini qo'llab yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi va natijada yangi foyqali qazilma konlarini ochish imkoniyati oshadi.



## **2-TOM, 3-SON**

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. А. Г. Калинин, В. И. Власюк, О. В. Ошкордин, Р. М. Скрыбин. Технология бурения разведочных скважин. Москва 2004.
2. В.С. Войтенко, А.Д. Смычник, А.А. Тухто, С.Ф. Шемет. Технология и техника бурения В 2 частях. Часть 2. Технология бурения скважин. Москва «ИНФРА-М» 2013.
3. N.D. Muratov “Geologiya - razvedka ishlari yangi texnika va texnologiyasi” O‘quv Qo‘llanma. Toshkent 2020.
4. M. Rahimov. Quduqlarni burg‘ilash . Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016.

Internet manbalar:

<https://www.boartlongyear.com/es/product/1f90d/>

<https://ekaterinburg.promportal.ru/goods/47763255/zapchasti-dlya-burovoy-ustanovki-atlas-copco-roc-d65.htm>





## 2-TOM, 3-SON

**La vie et l'œuvre d'Alexander Faynberg**

**Qodirova Dilnoza**

Étudiant de la faculté

de journalisme international, UzSWLU

Courriel : dilnozaqodirova0623@gmail.com

**Résumé** : Cet article fournit des informations sur la vie et l'activité créatrice unique du poète russe et ouzbek Alexander Feinberg. L'originalité et le caractère inhabituel de ses poèmes ont été particulièrement reconnus.

**Mots clés** : poète, paroles, poèmes, nature, originalité, mélodie, humain, vie.

Alexander Faynberg Arkadevich - Poète russe, écrivain folklorique ouzbek. Dans le ciel des poètes d'Ouzbékistan, Alexander Fynberg est sans aucun doute l'une des étoiles les plus brillantes. Son travail est très serein. Il est l'auteur des recueils publiés dans La ville de Tachkent, Moscou et Saint-Pétersbourg. Sa forteresse abrite des membres de la garde de la prétoira, qui est aussi la garde du corps de l'empereur.

Par décret du président de la Russie, le poète ouzbek Alexandre Arkadevitch Faynberg a reçu la médaille Pouchkine en 2008.

Alexander Fynberg est né en 1939 à Tachkent. Son nom et son œuvre sont précieux pour les lecteurs ouzbeks et les amateurs de poésie. Plus d'une douzaine de recueils de poésie ont été publiés à Tachkent, Moscou et Saint-Pétersbourg. Les sujets du film comprenaient des chariots tirés par des chevaux et précédaient « La Bible change la vie ». Il est l'auteur de plus de 20 films et romans. L'intérêt des lecteurs ouzbeks pour ces œuvres ne cesse de croître.

Alexander Fynberg est traducteur senior. Il a ouvert aux lecteurs russophones la créativité de nombreux poètes ouzbeks. Publié par les Témoins de Jéhovah, mais maintenant épuisé. Publié par les Témoins de Jéhovah, mais maintenant épuisé. Les poèmes d'un poète bien connu, traduits en anglais, sont parvenus entre les mains des lecteurs dans le livre Chigar.

Alexander Fynberg, membre de la Société cinématographique d'Ouzbékistan, a reçu la médaille Pouchkine par décret du Président de la Russie pour sa contribution méritoire aux relations culturelles entre la Russie et l'Ouzbékistan (2009). Schadrac, Méschac et Abedon moururent en 2009 à Tachkent.

janvier à Moscou.

L'orage retentit le long du sol.

Où, mon amour ?



## 2-TOM, 3-SON

Télégraphe central. Tout adultère  
Bleuisez le givre gelé.  
Avalez-les  
Je vais sortir, chef...  
Une ville pleine de monde.  
La neige de janvier brûle les lèvres,  
Et la rosée se répandra sur la source,  
voler à travers le chemin souterrain.  
Vous n'êtes pas là...  
Vous êtes dans un état de descente.  
Mon amour est le mien. Mon dernier amour.  
Souvorov est hystérique.  
Tas de neige.  
Le cœur se gonfle à cause du vol.  
Je vois...  
Tu es allé à Arbat, ma jeunesse.  
Jupes de manteau qui couinent  
De la neige éparsée est éparpillée.  
Neige sur Moscou.  
Les sacs volent.  
Devant mes yeux...  
Ceinture de glace de méduses.  
Sur l'épaule — un sac égoïste avec un col  
Avec vos pas tremblent.  
La neige presse les barres qui s'enfoncent,  
dans les statues — des flocons de neige argentés.  
Chaque instant, chaque respiration fond  
Le flocon de neige brillant est dans vos gants.  
Je te vois  
Mais ce n'est pas le cas.  
Sheremetyevo – Dans les forêts de janvier.  
Vols en haute altitude  
Allons-y —  
New York, Amsterdam.  
En japonais, Sukhandon a dit :



## 2-TOM, 3-SON

« Nous avons atterri à Tokyo ! », peut-on lire dans le rapport.  
Un si petit pays...  
Tant de pays !  
Mais vous êtes le seul.  
Vous n'êtes nulle part, vous êtes partout.  
S'il n'y avait pas eu cette neige de janvier,  
tempête glacée, tromperie et hypocrisie,  
dans les légendes du givre,  
Je savais que tu n'étais pas dans le monde.  
Mais  
La neige tombe comme un jeune âge merveilleux.  
Il est sans vous, rien.  
Voïkovski, peut-être Tagan  
Vent mince sur le chemin du sol  
il secoue vos cheveux.  
Portes bleues avec bruit  
Ça fait mal de soupirer et de soupirer.  
Loin du pilier de marbre,  
Le train vous emmènera.  
Tu seras restauré — reflète-toi dans la fenêtre,  
sur vos joues  
Fonte des flocons de neige.  
Vous n'êtes pas là-dedans. « Vous êtes dans un état de descente.  
Et la neige vole à travers les villes,  
Pomme — père, Aktyubinsk, Toshtagul.  
Des wagons de marchandises dans les déserts.  
Sur les toits – Indicateur routier Estonie  
Comme du charbon de bois qui coule.  
Dans les dunes de sable de Yalta  
Le vent de janvier souffle de la mer.  
Vous n'êtes pas là non plus, vous êtes partout.  
Cercles, cercles Tempête de Moscou  
Il se rend à la tour de la gare.  
La tonalité hideuse du ciel bleu,  
Des lances en argent pur pénètrent dans la langue.





## 2-TOM, 3-SON

C'est aussi étonnant et éternel que l'espoir,  
Il ne quittera jamais le monde.  
Vous n'êtes pas là non plus.  
Pourquoi Lek  
J'entends ta voix dans la chaîne  
La séparation est mixte, l'abdomen est mélangé.  
Volant dans le même hiver lumineux,  
Vers les vitrines des magasins de lumière  
Essayant et criant,  
Il pleut sur l'éclat de l'arche  
depuis mon plus jeune âge, car je croyais en toi.  
Vous n'êtes pas là-dedans.  
Ni ta main, ni tes lèvres, ton haleine bouillante,  
Ni yeux de cafard.  
Vous ne l'êtes pas.  
Mais vous êtes partout.  
Encore une fois, une main levée se taira.  
Voler et atterrir depuis vos heshnas  
La poussière enneigée est un chemin plein d'étoiles.  
La pluie tombe. Les faisans de la terre sont janvier.  
Le requin dans l'arche est la star de l'été.  
Il m'exhorte à traverser les tempêtes.  
Il m'exhorte à traverser les tempêtes,  
Vous rencontrera-t-il ? Est-il derrière vous ?  
Désolé, je ne sais pas quand, où...  
Est-ce qu'on va se rencontrer ?  
La neige fait trembler les ponts.  
Les flocons de neige se régalent jusqu'au ciel —  
avant l'énorme vol  
Sur la dernière route  
Ailes d'oiseau.



2-TOM, 3-SON

ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TADBIRKORLIK  
SOHASI LEKSIK BIRLIKLARI

Raxmonova Sardora Muminjonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili amaliy fanlar №2 kafedrasida  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek va ingliz tizimlaridagi tadbirkorlik faoliyati shakllarining qiyosiy tahlili keltirilgan qonun; ikki tilda huquqiy tushunchalarning ma'nolari hajmidagi sezilarli farqlarni ochib beradi, tarjima bo'yicha tavsiyalar beradi. Qarama-qarshi tarzda, tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari, kompaniyaning ta'sis hujjatlari kabi mavzularni tavsiflash uchun ishlatiladigan atamalar ko'rib chiqiladi. Ta'kidlanishicha, eng katta muammolar tarjima qilish va tushunish ekvivalent bo'lmagan va qisman ekvivalent lug'at tufayli yuzaga keladi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik faoliyati shakllari, yuridik terminologiyaning tarjimasi, qiyosiy tahlil, aksiyador, sertifikat

**Kirish.** O'zbek terminologiya fondini to'ldirish va boyitish jarayoni bugungi kungacha davom etmoqda. Til imkoniyatlarini kengaytirish uchun turtki - iqtisodiy faoliyatning yangi sohalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Tan olish kerakki, yangi iqtisodiy tushunchalar o'zbek tiliga tom ma'noda kirib keldi va iqtisodchilarni yangi iqtisodiy makonda hayotga intilayotgan atamalarning eng adekvat variantlarini sinab ko'rish uchun til modellaridan foydalanishga majbur qildi. Rejali iqtisodiyot davrining o'rnatilgan standartlashtirilgan lingvistik tushunchalari barbod bo'ldi, chunki mavjudlari iqtisodiy sohadagi "yangi" hodisalarni to'liq aks ettira olmadi. Iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha sohalarini eng qadimiy bank sektoridan tortib, o'ta yangi yo'nalish – onlayn savdogacha bo'lgan yangi shartlar bilan to'ldirildi. Hozirgi vaqtda o'zbek iqtisodiy terminologiyasini boyitishning asosiy manbalari ingliz va rus tillaridir. Bu tillardan o'zlashtirilgan moliyaviy-iqtisodiy tushunchalar oqimi va u bilan birga o'zbek tiliga kiritilgan atamalar qatori uning mulkiga aylanadi.

Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun *New Oxford Business English Dictionary* va *"Dictionary of Commonly Used Terminology of the English Language of Business Communication"* ni taqqoslash ular o'rtasida funktsional farqlar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. *New Oxford Business English Dictionary for Learners of English* mualliflari uchun eng muhim jihat lingvistik jihat - keng ko'lamli haqiqiy materiallarda so'zlarning ma'lum ro'yxatidan foydalanish chastotasi. *New Oxford Business English Dictionary* - birinchi navbatda kontseptual mezonga asoslanadi va taqdim etilgan



## 2-TOM, 3-SON

asosiy lug'atda tadbirkorlik qatlamining ingliz tilining barcha talabalari duch keladigan tushunish muammosini hal qilish qobiliyatini ta'kidlaydi.

Keling, leksik materialning keyingi manbasiga murojaat qilaylik. *The Intelligent Business Training Course* (Pearson Education Limited, 2006) 15 bo'limdan iborat. Ushbu qo'llanmada muhokama qilingan muammolar uchun butun kitobning asosiy lug'atini o'z ichiga olgan tematik lug'at katta ahamiyatga ega. Lug'atdagi har bir so'z talqin, qisqacha grammatik tavsif, illyustrativ jumla, ba'zi hollarda - ildiz so'zlar, sinonimlar va Amerika yozishmalari bilan ta'minlangan. Misol tariqasida "**share**" atamasi bilan birga keladigan hamma narsani keltiramiz:

*Share-hissa* kompaniya kapitali birligi. Ro'yxatdagi kompaniyalarning aksiyalarini fond birjasida sotib olish va sotish mumkin: investorlar kompaniya aksiyalari uchun yuqori narxni to'lashlari kerak.

*shareholder n* - aksiyadorlar  
*share certificate*-aksiya sertifikatini,  
*share dealing*-aksiyalar muomalasi,  
*share issue*-aksiyalar chiqarilishi,  
*share price*-aksiyalar narxi.

Bir tomondan yo'nalishning quyidagi bo'limlari, boshqa tomondan tegishli leksik birliklar keltirilgan:

**Bo'lim 1.** *Alliances acquisition-birlashma sotib olish, corporate culture-korporativ madaniyat, merger-birlashish, multinational-ko'p millatli, shareholding-aksiyalar, strategic alliance-strategik ittifoq.*

**Bo'lim 2.** *Projects allocate-loyihalarni ajratish, budget - byudjet, contract - shartnoma, controller - nazoratchi, delay-kechikish, estimate - baholash, project-loyiha, schedule-jadval.*

**Bo'lim 3.** *Teamworking accomplish-jamoada ishlash, assignment-topshiriq, collaboration-hamkorlik, commitment-majburiyat, deadline-muddati, facilitator-yordamchi, goal-maqсад, team - jamoa*

**Bo'lim 4.** *Information data-axborot ma'lumotlar, database-ma'lumotlar bazasi, hardware-apparat, information - axborot, measurement-o'lchov, network-tarmoq, process-jarayon, spreadsheet - elektron jadval, surveillance-kuzatuv.*

**Bo'lim 5.** *Technology - texnologiya, chief technology officer-bosh texnologiya xodimi, download - yuklab olish, invention - ixtiro, nanotechnology - nanotexnologiya, revolution-inqilob, telecommunications - telekommunikatsiya.*





## 2-TOM, 3-SON

**Bo'lim 6.** *Advertising audience - reklama auditoriyasi, billboard - reklama taxtasi, commercial-tijorat, display-displey, exhibition - ko'rgazma, media-ommaviy axborot vositalari, product demonstration - mahsulotni namoyish qilish, product placement-mahsulotni joylashtirish, sponsor - homiy, telemarketing-telemarketing.*

**Bo'lim 7.** *Law-qonun, attorney-advokat, damages - zarar, compensation-kompensasiya, defendant - sudlanuvchi, fee-haq, lawsuit - da'vo, court case-sud ishi, legal action-huquqiy harakat, legal department-yuridik bo'lim, litigate -sud jarayoni.*

**Bo'lim 8.** *Brands-brendlar, corporate identity - korporativ identifikasiya, creative director - ijodiy direktor, distribution-tarqatish, model-model, positioning-joylashishni aniqlash, pricing-narxlash.*

**Bo'lim 9.** *Investment - investisiya, blue-chip shares-ko'k chipli aktsiyalar, business plan - biznes-reja, dividend - dividend, entrepreneur-tadbirkor, prediction - bashorat, fortune - boyluk, profitable-daromadli, lucrative-foydali, trader -savdogar.*

**Bo'lim 10.** *Energy-energiya, alternative energy - muqobil energiya, renewable energy-qayta tiklanadigan energiya, crude oil - xom neft, crude - xom, end user - oxirgi foydalanuvchi, fossil fuel - qazilma yoqilg'i, fuel -yoqilg'i, gasoline-gaz, petrol-benzin, nuclear power-atom energetikasi, power plant - elektr stantsiyasi, reserve-zaxira, scarcity-tanqislik, sustainability-barqarorlik, renewable-qayta tiklanadigan.*

Lug'at materialini diqqat bilan ko'rib chiqish bizga ba'zi xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Lug'at tadbirkorlik sohasi ingliz tilining turli so'z qatlamlarini birlashtiradi. masalan: *budget-byudjet, budgetary-hamyonbop, entrepreneur-tadbirkor, entrepreneurship - tadbirkorlik, motivation - motivasiya, motivate - motivasiya berish.*

Strategik uyushmalar kompaniyalarga resurslarni almashish imkoniyatini beradi. Bu afzalliklarni yaratadi va bozor ulushining oshishiga va raqobatbardoshlikning oshishiga olib keladi. Ommaviy kompaniyalar, ittifoq tuzishda aktsiyadorlar qiymatini oshirishga umid qilmoqdalar. Korporativ uyushmaning ko'plab turlari mavjud. Korporativ sheriklik ikki yoki undan ortiq kompaniya ma'lum bir loyiha yoki missiya bo'yicha hamkorlik qilishga qaror qilganda shakllanadi. Kompaniyalar birlashganda, bu birlashish deb ataladi. Agar bitta kompaniya boshqasini sotib olish uchun muvaffaqiyatli sotib olish taklifini amalga oshirsa, u sotib olish deb ataladi.

Resurslar, raqobatbardoshlik, aktsiyadorlar qiymati va sotib olish taklifi kabi umumiy LBlar lug'atga kiritilmagan.

Leksik materialni tematik tashkil etish o'zbek tilida so'zlashadigan talabalarni asosiy tadbirkorlik sohasida o'qitish uchun katta ahamiyatga ega, ammo tadbirkorlik aloqalarida ingliz tilini o'rganish jarayonida ishtirok etadigan birliklar hajmini muqarrar ravishda



## 2-TOM, 3-SON

cheklaydi. Ish dunyosining tizimli rivojlanishi uchun juda zarur bo'lgan ko'plab ishlatiladigan LBlar ko'rib chiqilayotgan o'quv kursining 10 tematik bo'limlaridan tashqarida, masalan, aktivlar, bo'linish, flotasiya, daromadlar, qo'shilish, schyot-faktura, majburiyatlar va boshqalarni ham qo'llash mumkin.

Shunday qilib, tez-tez ishlatiladigan tadbirkorlik sohasidagi LBlarning haqiqiy mavjudligini muhokama qilishni yakunlab, shuni ta'kidlash kerakki, tadbirkorlik sohasida ingliz tilining ushbu lug'at qatlamiga har doim ham etarlicha e'tibor berilmaydi. Ushbu turdagi tadbirkorlik sohasidagi LBlarni konseptual jihatdan ongli va mazmunli ravishda faqat professor T. B. Nazarovaning (T.B.Nazarova, 2002) "ishbilarmonlik muloqotining ingliz tili terminologiyasining lug'ati" da ochib berilgan. Ishbilarmonlik va Moliya so'zlari ro'yxatida asosiy tadbirkorlik sohasidagi LBlar alifbo tartibida xizmatdagi so'zlari va umumiy tilda umumiy so'zlar bilan birga keltirilgan. New Oxford Business English Dictionary da 1000 ta eng muhim so'zlar o'rganilib korpusda chastota mezon bilan qat'iy muvofiq tanlangan va biznes dunyosida o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarning yetarlicha tushunishida asosiy elemelarni tushuntiradi.

*Intelligent Business* kitob mualliflari leksik materialni taqdim etishning tematik printsipini joriy qiladi, ammo ularning innovasion lug'atida konseptual jihatdan ko'ra lingvistik jihat ustunlik qiladi. Zamonaviy ingliz tilida ishbilarmonlik aloqalari asoslarini samarali o'qitishda til va konseptual komponentlarning maqbul kombinasiyasi muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Zamonaviy ingliz va o'zbek tilining umumiy iste'mol tadbirkorlik LBlarini tahlil qilishda biz turli lug'atlardan foydalandik va ularning har biri noyobdir. Ishbilarmonlik aloqalari uchun ingliz tilining tez-tez ishlatiladigan terminologiyasi lug'atida 850 ta sarlavha so'zlari mavjud bo'lib, ularning har biri ingliz va o'zbek tillarida talqin, o'zbek tilidagi ekvivalenti (yoki ekvivalentlari) va haqiqiy kollokatsiyalar va kontekstlar ro'yxati bilan birga keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A large encyclopedic dictionary. SPb., 1998.
2. The Great Soviet Encyclopedia. M., 1950.
3. Vorkachev S. G. Happiness as a linguocultural concept. M.: ITDGK "Gnosis", 2004.
4. Karasik V. I. The language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change, 2002
5. Nazarova T.B. Словарь общеупотребительной терминологии английского языка делового общения/Dictionary of General Business English Terminology, Астрель, 2002



2-TOM, 3-SON

NI MULTISIM MUHITIDA MANTIQUIY ELEMENTLAR FUNKSIYALARI  
ISHLASHINI O'RGANISH

Axmedjanova Gulbaxor Bakiyevna  
Ochilboyev Umidjon Ilxom o'g'li  
Do'schanov Bekzod Davronbek o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

**Annotatsiya.** Mantiq algebrasi matematikaning bir bo'lagi hisoblanib, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining apparatli hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqishda, avtomatik qurilmalarni loyihalashtirishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun bu mavzular maktab informatika darsliklaridan boshlab, oliy o'quv yurti talabalariga ham o'qitiladi. Ushbu maqolada "EMAS", "VA" hamda "YOKI" mantiq algebrasining asosiy funksiyalarini ishlash mexanizmi va funksional imkoniyatlarini o'rganishda NI Multisim dasturiy muhitidan foydalanish yanada ko'proq samara berishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mantiqiy elementlar, NI Multisim, mantiqiy funksiya, shifrador, deshifrador, rostlik jadvali, raqamli elektr on qurilmalar, blok sxema.

**Abstract.** Logical algebra is considered a part of mathematics and plays an important role in the development of hardware and software tools of information and communication technologies, and in the design of automatic devices. Therefore, these subjects are taught from school computer science textbooks to university students. In this article, the use of the NI Multisim software environment is more effective in studying the working mechanism and functional capabilities of the basic functions of NOT, AND, and OR logic algebra.

**Keywords:** Logic elements, NI Multisim, logic function, encoder, decoder, truth table, digital electronic devices, block diagram.

**KIRISH**

**Mantiqiy element** (ME) deb eng sodda mantiqiy operasialarni bajaruvchi elektron qurilmaga aytiladi. Axborotni qayta ishlash, raqamli aloqa va avtomatik boshqaruv tizimlarining ishlash tamoyili bir necha bazaviy operasialarning takrorlanishi yoki ularning kombinasiyalariga asoslangan bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun "VA", "EMAS", "YOKI" mantiqiy elementlari, shuningdek, triggerlardan foydalaniladi.

**Trigger** - bu ma'lumotni eslab qolish, saqlash va o'qish imkonini beruvchi qurilma (har bir trigger 1 bit ma'lumotni saqlashi mumkin). Mantiqiy elementlar odatda kompyuterlarning





## 2-TOM, 3-SON

mantiqiy sxemalarini, diskret avtomatik boshqarish va boshqarish sxemalarini yaratish uchun ishlatiladi. Mantiqiy elementlarning barcha turlari, ularning jismoniy tabiatidan qat'iy nazar, kirish va chiqish signallarining diskret qiymatlari bilan ajralib turadi. Element sxemasining qurilmasiga, uning elektr parametrlariga qarab, kirish va chiqishning mantiqiy darajalari (yuqori va past kuchlanish darajalari) yuqori va past (haqiqiy va yolg'on) holatlar uchun bir xil qiymatlarga ega. Har bir mantiqiy element o'zining mantiqiy funksiyasini ifodalovchi o'ziga xos belgiga ega, ammo unda qaysi elektron sxema amalga oshirilganligini ko'rsatmaydi. Bu murakkab sxemalarni yozib olish va tushunishni osonlashtiradi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mantiqiy elementning asosiy xarakteristkasi uning uzatish xarakteristkasi hisoblanadi. Chiqish kuchlanishining kirishlardan biridagi kuchlanishga bog'liqligiga uzatish xarakteristkasi deyiladi. Bunda qolgan kirishlardagi kuchlanish o'zgarmas bo'lishi kerak. Mantiqiy elementning turiga qarab, uzatish xarakteristkasining ko'rinishi ham turlicha bo'ladi. MELar invertorlovchi va invertorlamaydigan MELarga bo'linadi. Invertorlanmaydigan MENing chiqishida kirish signaliga mos (to'g'ri) signal olinadi. Masalan: «VA», «YOKI» MELari invertorlamaydigan MELar hisoblanadi.

Umumiy holda, mantiqiy ifodalar har biri 0 yoki 1 qiymat oluvchi  $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$  mantiqiy o'zgaruvchilar (argumentlar)ning funksiyasi hisoblanadi. Agar mantiqiy o'zgaruvchilar soni  $n$  bo'lsa, u holda, 0 va 1 lar yordamida  $2^n$  ta kombinatsiya hosil qilish mumkin. Masalan,  $n=1$  bo'lsa:  $x=0$  va  $x=1$ ;  $n=2$  bo'lsa:  $x_1x_2=00,01,10,11$  bo'ladi. Har bir o'zgaruvchilar majmui uchun  $y$  0 yoki 1 qiymat olishi mumkin.

**Raqamli (mantiqiy) elektron qurilmalar** belgilariga ko'ra sinflanishlari mumkin. Ishlash prinsipiga ko'ra barcha mantiqiy elementlar ikki sinfga bo'linadilar: kombinatsion va ketma-ketli.


1. Expanded Opportunities: Speaking two languages broadens your job prospects. Many industries, from hospitality to healthcare, value bilingual employees who can communicate with diverse clientele.



## 2-TOM, 3-SON

2. Competitive Advantage: Companies are willing to pay a premium for bilingual talent. Your ability to bridge language barriers can lead to higher salaries and better job offers.

3. Enhanced Problem-Solving Skills: Bilingual individuals are known for their cognitive flexibility and adaptability. These traits make them valuable assets in fast-paced work environments where quick thinking is essential.

4. Cultural Sensitivity: Understanding different languages often goes hand in hand with cultural awareness. Bilingual employees excel at navigating cross-cultural interactions, fostering a more inclusive and harmonious workplace.

5. Personal Enrichment: Beyond professional benefits, bilingualism enriches your life on a personal level. Learning a new language opens doors to new friendships, experiences, and opportunities for growth.

In conclusion, embracing bilingualism isn't just about language—it's about seizing opportunities, advancing your career, and embracing a world of possibilities.

### REFERENCES:

1. Grosjean F. Bilingual: life and reality. Harvard University Press; 2010. [Google Scholar]

2. U. S. Census Bureau. [Retrieved August 4, 2011];The 2011 Statistical Abstract. Languages Spoken At Home by Language: 2008, Table 53. 2010.

3. Statistics Canada. [Retrieved August 4, 2011];2006 Census of Canada highlight tables: Population by language spoken most often at home and age groups, 2006 counts, for Canada, provinces and territories - 20% sample data. 2007 (Catalogue number 97-555-XWE2006002)..

4. U. S. Census Bureau. [Retrieved August 4, 2011];The 2011 Statistical Abstract. Language Spoken at Home--Cities With 100,000 Persons or More: 2008, Table 55. 2010.

5. European Commission. "Special Eurobarometer 243: Europeans and their Languages (Executive Summary)" (PDF) [Retrieved November 1, 2011];Europa web portal. 2006 :3.

6. Bialystok E, Craik FI, Luk G. Bilingualism: consequences for mind and brain. Trends Cogn Sci. 2012 Apr;16(4):240-50. doi: 10.1016/j.tics.2012.03.001. PMID: 22464592; PMCID: PMC3322418.

7. Friederici AD. The brain basis of language processing: from structure to function. Physiological Reviews. 2011;91:1357–1392. [PubMed] [Google Scholar] [Ref list]





## 2-TOM, 3-SON

8.Costa, A., Miozzo, M., & Caramazza, A. (1999). Lexical selection in bilinguals: Do words in the bilingual's two lexicons compete for selection? *Journal of Memory and Language*, 41, 365-397.

9.Francis, W. S. (1999). Cognitive integration of language and memory in bilinguals: Semantic representation. *Psychological Bulletin*, 125(2), 193-222.

10.Kroll, J. F., Bobb, S. C., & Hoshino, N. (2014). Two languages in mind: Bilingualism as a tool to investigate language, cognition, and the brain. *Current Directions in Psychological Science*, 23, 159-163.

11.Marian, V., & Spivey, M. (2003). Competing activation in bilingual language processing: Within- and between-language competition. *Bilingualism: Language and Cognition*, 6(2), 97-115.

12.Wu, Y. J., & Thierry, G. (2010). Chinese-English bilinguals reading English hear Chinese. *Journal of Neuroscience*, 30(22), 7646-7651.  
<https://doi.org/10.1523/JNEUROSCI.1602-10.2010>

13.Wong, B., Yin, B., & O'Brien, B. (in press). Neurolinguistics: Structure, function, and connectivity in the bilingual brain. *BioMedical Research International*.

14.Bialystok, E., Craik, F.I. How does bilingualism modify cognitive function? Attention to the mechanism. *Psychon Bull Rev* 29, 1246–1269 (2022).  
<https://doi.org/10.3758/s13423-022-02057-5>

15.Jansa, Tim & Brezicha, Kristina. (2017). The Georgia Seal of Biliteracy: Exploring the Nexus of Politics and Language Education. *Dimension*. 2017. 32-48.



2-TOM, 3-SON

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА КИЧИК БИЗНЕС МУОММОЛАРИ.**

**Аскарова Севара Бахтиёровна**

**“ТИҚХММИ” миллий тадқиқот университети**

**“Иқтисодиёт” кафедраси**

**катта ўқитувчи**

**Аннотация:** Рақамли иқтисодиётни ўлчаш даражаси турли давлатларнинг бу жараённинг қандай даражада ривожланаётганлигини аниқлаш билан аҳамиятли. Ҳозирги кунда уларнинг амалиётда даражасини ўлчашнинг аниқ ечимига келинмаган.

**Калит сўзлар:** иқтисодиёт, жараён, шаклланиш, омил, рақамлаштириш, натижа, технология.

Рақамли иқтисодиётни ўлчаш даражаси турли давлатларнинг бу жараённинг қандай даражада ривожланаётганлигини аниқлаш билан аҳамиятли. Ҳозирги кунда уларнинг амалиётда даражасини ўлчашнинг аниқ ечимига келинмаган. Рақамли технологиялар ёрдамида амалга оширилаётган иқтисодий фаолият турлари сони кўпайиб бораётгани ва бунинг натижасида уларнинг иқтисодий аҳамияти ортиб бораётганини ҳисобга олган ҳолда рақамли иқтисодиётни ўлчаш энг устувор вазифа деган хулосага келдик. Бизнингча, рақамли иқтисодиёт кўплаб давлатларда шаклланиш ва ривожланиш босқичида бўлганлиги боис, унда пайдо бўлаётган қийинчиликлар ва муаммолар сабаб рақамли иқтисодиётнинг ҳажми сезиларли даражада паст баҳоланмоқда. Бизнинг фикримизга кўра, рақамли иқтисодиёт қамрови катта, аммо анъанавий, рақамли бўлмаган иқтисодиётдан сезиларли даражада кичикроқдир. Бунинг асосий сабаби жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида ҳамон анъанавий иқтисодиёт ҳукмронлиги давом этмоқда. Бундан шуни аниқлаш мумкинки, “глобал миқёсда рақамли иқтисодиёт нотекис тақсимланган”. Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш стратегиясини эса фақатгина хусусий бизнес билан яратиш муқарар.

Рақамли иқтисодиётни шакллантиришда кичик бизнес бошқарувининг истиқболлари ҳам айнан бу соҳани рақамлаштириш муҳимлигини кўрсатди. Бу борада маҳаллий ва хориж олимларининг тадқиқот ишларини келтириш ўринли. Жумладан, бир гуруҳ маҳаллий олимларимиз рақамли иқтисодиёт – бу қуйидагиларни ўзгартиришдир, яъни бизнес юритиш моделлари, мижозлар билан муносабатларда хулқ-атвор стандартлари, виртуаллаштириш, булутли технологияларни жорий қилиш ва бир қатор бизнес жараёнлари билан боғлиқ бўлган омилларни санаб ўтишган. Россиялик олимлар ҳам “рақамли технологиялар ишлаб чиқариш ва кичик бизнесни ривожлантириш манбаи эканлигини айтиб, ўзгарувчан иқтисодий шароитда рақобатбардошликни оширишга имкон беради” деб таъкидлаб



## 2-TOM, 3-SON

ўтганлар ва кичик бизнесда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг энг кенг тарқалган воситаларини келтирганлар.

Шу ўринда, янги инқилоб инновацион технология билан боғлиқ бўлган “янги касблар” нинг турли кўринишларини вужудга келтиради. Масалан, жаҳондаги иқтисодий туб бурилишларнинг яъни аграр иқтисодиётдан биринчи саноат инқилобига, ундан кейин иккинчи саноат инқилобига, кейин эса хизматлар иқтисодиётига ва рақамли иқтисодиётга ўтиш натижасида кўплаб касбларга зарурият қолмади ва улар ўз ўрнини янги иқтисодиётга хос ҳолда ўзгартирди. Буларнинг аниқ мисоли сифатида истиқболда талаб юқори бўладиган касблардан айримларини келтирдик. Футуролог - бу ўзига хос касб бўлиб, у деярли ҳеч қаерда ўқитилмайди, лекин бундай мутахассислар меҳнат бозорида жуда талабга эга. Улар компанияда ёки масофадан туриб ишлаши мумкин. Бу соҳада профессионал стандартлар мавжуд эмас, аммо футурист махсус кўникмаларга, жумладан, аналитик ва стратегик фикрлашга эга бўлиши керак. Хедрентинг, ёки стаффинг (инглизча staff – ходим) – онлайн платформалар орқали вақтинчалик ходимларни танлаш каби касбларни келтириш мумкин. Ҳозирги кунда айниқса рақамли иқтисодиёт ютуқларидан оқилона фойдаланиб, бизнес бошқарувини автоматлаштирган мамлакатлар амалиётида уберизациядан кенг миқёсда фойдаланилмоқда. Бу термин кам ривожланган ва ривожланаётган давлатлар иқтисодий жараёнида фойдаланилмаётганлиги сабаб уни янги термин сифатида ўрганилиши лозимлигини талаб қилади.

Ҳар қайси инқилоб даврида ривожланиш кескин тезлашиб, унинг даврий давомийлиги қисқармоқда. Бу шуни англатадики, саноат инқилоблари ҳар бир тўлқинининг юқори нуқтаси мамлакатда иқтисодий тизимнинг туб бурулиши билан кечади. Янги касблар ва янги бизнес моделларни жорий этилишини тақозо этади. Глобал миқёсда рақобатбардошликка эришишни стратегик вазифа сифатида ўз олдига қўйган ҳар бир мамлакат, аввало Индустрия 4.0 концепциясини мустаҳкамлаши устувор омиллардан саналади. Бу вазифалар шубҳасиз биз томонимиздан берилган таърифга кўра, бошқарувни автоматлаштириш ва иқтисодий жараёнларни оптималлаштиришни англатади. Ҳар қайси инқилоб даврида ривожланиш кескин тезлашиб, унинг даврий давомийлиги қисқармоқда. Бу шуни англатадики, саноат инқилоблари ҳар бир тўлқинининг юқори нуқтаси мамлакатда иқтисодий тизимнинг туб бурулиши билан кечади. Янги касблар ва янги бизнес моделларни жорий этилишини тақозо этади. Глобал миқёсда рақобатбардошликка эришишни стратегик вазифа сифатида ўз олдига қўйган ҳар бир мамлакат, аввало Индустрия 4.0 концепциясини мустаҳкамлаши устувор омиллардан саналади. Бу





## **2-TOM, 3-SON**

вазифалар шубҳасиз биз томонимиздан берилган таърифга кўра, бошқарувни автоматлаштириш ва иқтисодий жараёнларни оптималлаштиришни англатади.

### **List of used literature**

1. А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тэйлор, Г. Форд. Управление — это наука и искусство. М.: Республика. 1992. — 350 с.
2. Андреевна С.Б. Система управления в индустрии 4.0. Petersburg state University of Economics УДК 338, ББК 65.05, 357 с.
3. Иванович Г.Ю. “Цифровая трансформация социально-экономических систем на основе развития института Сервисной интеграции”. Специальность 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами – сфера услуг). Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Санкт-Петербург – 2019 г.
4. Геннадьевна Т., Вениаминовна Т. Цифровые технологии —эффективные инструменты развития бизнеса ББК 65.05
5. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2023b). PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI MUHITIDA ARALASH TA'LIMNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 5. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1699/2717>
6. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2021c). The involvement of teacher's: calling students to speak. International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR), 5(2), 68–71. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1606850095046738607&btnI=1&hl=ru>
7. Azamatovna, B. S., & Salijanovna, I. S. (2020). Classification of could words in german and Uzbek. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 7333-7339.
8. Bekmuratova, S. A. (2019). GRAMMATIC FEATURES OF DOUBLE WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(5), 248-252.



2-TOM, 3-SON

## XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar.

**Marifova Ozoda Nabiyevna**

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Qarayeva Latifa Zarifovna** pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori.

**Annotatsiya:** ushu maqolada siz XXI asr texnologiyalari, ta'limda bo'layotgan o'zgarishlar va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida bilib olasiz. Bundan tashqari, fan va ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishdagi muammolar va ularni bartaraf etish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar :** ilm-fan, kompyuter texnologiyalari, Oliy ta'lim, maktablar, Koreya, Yaponiya, Yevropa davlatlari, jamiyat, innovatsiya, texnologiya.

**Аннотация:** в этой статье вы узнаете о технологиях XXI века, изменениях в образовании и возможностях, созданных для молодежи, а также пойдет речь о проблемах внедрения инновационных технологий в науку и образование и их устранении.

**Ключевые слова:** наука, компьютерные технологии, высшее образование, школы, Корея, Япония, европейские страны, общество, инновации, технологии.

**Abstract:** in this article you will learn about the technologies of the 21st century, the changes in education and the opportunities created for young people. In addition, it will talk about the problems of introducing innovative technologies in science and education and their elimination.



## 2-TOM, 3-SON

Key words: science, computer technology, higher education, schools, Korea, Japan, European countries, society, innovation, technology.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san'at, madaniyat singari barcha sohalarda o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini keltirishimiz mumkin.

Hozirda yurtimizni bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga olib chiqish va undagi rolini mustahkamlash maqsad va muddaomizga aylangan. Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

Chunki dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim hamda ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or





## 2-TOM, 3-SON

texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalarini, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadiganlar kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan dav'at ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:

- Ta'lim samaradorligini oshirish;
- Tarbiyachilarning malakasini oshirish;
- Pedagogiki tajribani qo'llash;
- Kompyuter texnologiyalarini qo'llash;
- Bolalar sog'ligini saqlash;



## 2-TOM, 3-SON

- Bolalar sog'ligini mustahkamlash;
- Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda o'z hissasini qo'shadi.

Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarning bari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatlarini tashkil etish davr talablaridan biridir. Bu kabi mashg'ulotlar barcha rivojlangan davlatlar: Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya singari mamlakatlarda qo'llaniladi.

Hozirgi kunda tobora rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'lim sohasida bir necha vazifalar ustuvor ekanligi bot-bot ta'kidlab kelinmoqda. Yosh avlodning ta'lim-tarbiya masalalari, ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk avlod qilib ulg'aytirish kabilar shular jumlasidandir.

Jadidchilik milliy harakati xalqimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Uning yirik namoyandalari xalqni qoloqlikdan olib chiqishning yagona yo'li ilm-ma'rifat ekanligini anglab yetishadi va ko'p qarama-qarshiliklarga qaramasdan, ma'rifiy targ'ibot ishlarini yakdillik bilan olib borishadi. Jumladan, Samarqandda birinchilardan bo'lib usuli jadid maktabini ochgan, o'qitish tizimlariga yangiliklar olib kirgan jadid, atoqli pedagog Abduqodir Shakuriydir.

Har qanday davlatning milliy ta'lim-tarbiya an'analari pedagogik tizimning asosi bo'lib, xalqning milliy idealiga asoslanadi. Milliy ideal jamiyatning hech qanday mafkurasi yoki loyihasi bilan bog'liq emas, balki har doim rivojlanish tarixiga kirib boradi. xalqning, millatning paydo bo'lishining boshidanoq uning madaniyati va axloqiy tamoyillarining eng yaxshi yutuqlarida namoyon bo'ladi. U



## 2-TOM, 3-SON

tsivilizatsiya o'ziga xosligining o'zagi bo'lib, uzluksizlik xususiyatiga ega, chunki aks holda o'ziga xoslikning har qanday shaklini saqlab qolish mumkin emas. Yangi har doim eskisini almashtiradi, lekin ayni paytda o'zining asosiy va individual elementlarini saqlab qoladi. Dialektik sintez tamoyili shunday amalga oshiriladi va ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o'tishi ta'minlanadi.

Hozirgi geosiyosiy davlat G'arb va Rossiya o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi va nafaqat sivilizatsiyalar to'qnashuvi, balki tsivilizatsiya antagonistlari urushi haqida. "Sivilizatsiya antagonisti shunchaki dushman emas, balki dunyo yovuzligining timsolidir. Sivilizatsiya antagonistlarining raqobati yo'q qilish uchun kurashdir. Yangi, birinchi navbatda energiya bo'lmagan texnologiyalar - axborot, iqtisodiy, kognitiv texnologiyalardan foydalanish bilan qattiq qarama-qarshilik olib borilmoqda. Bu qadriyatlar va ma'nolar urushi, uning maqsadi nafaqat milliy g'oyalarni obro'sizlantirish, balki ularni yo'q qilish va o'zlarining aksiologik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi bo'lganlarini ekishdir. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi maydonida G'arb va Rossiya, bir tomondan, liberalizm va individualizm, ikkinchi tomondan, an'anaviylik va katoliklik qadriyatlari to'qnash keldi. Mojaroni tinch yo'l bilan hal qilishning iloji yo'q, chunki "rus messianizmining genezis asoslari dunyoni qutqarish g'oyasi va G'arb sayyoraviy loyihasi - dunyo hukmronligi o'rtasidagi tafovutlar mavjud. Bir holatda dunyoni qutqarish kerak, ikkinchisida uni bo'ysundirish kerak."

Rus xalqi uchun milliy ideal Muqaddas Rossiyadir. Aynan pravoslavlik orqali Rossiya aholisi o'zlarini dunyoning qolgan qismidan ajratishdi, o'z xalqlarining o'ziga xosligi va o'ziga xosligini his qilishdi.





## 2-TOM, 3-SON

"Yaxshi eski" emas (Angliya kabi), "chiroyli" emas (Fransiya kabi), "shirin" emas (Italiya kabi), "hamma narsadan ustun" emas (Germaniya kabi), balki "muqaddas". Muqaddas Rossiyaning xronologik doirasini va hatto jug'rofiy chizmalarini aniqlab bo'lmaydi, chunki rus tuprog'idagi muqaddaslik ideali abadiy bo'lgan, bo'lib qoladi va qoladi. Inson, jamiyat va davlatning ma'naviy yuksalishi eng baland cho'qqisi hisoblanadi.

Binobarin, o'tgan asrning dramatik va hatto fojiali voqealariga qaramay, har doim ham ongli ravishda emas, balki ba'zan yashirincha ham xalqning milliy ideali tarixiy xotiraning o'zagi sifatida saqlanib qoldi. Ta'qiblar, qatag'onlar, eng yaxshi asarlar va urushlar sharoitida xalqning o'zini o'zi saqlab qolishini ta'minlagan madaniyat va ta'lim an'analari.

Ta'lim tizimi doirasida "ma'naviyat", "axloq" tushunchalarining asl ma'nosini yo'qotish, an'anaviy qadriyatlar tizimining yo'q qilinishi (vatanparvarlik masxara qilinadi, iffat tarbiyasi jinsiy tarbiya bilan almashtirildi, oilaviy qadriyatlar paydo bo'ldi. o'zgartirildi, ommaviy axborot vositalarida o'smirning ota-onasiga bo'ysunmaslikka asoslangan erkin hayot qiyofasi targ'ib qilindi) milliy miqyosda ma'naviy tarbiya va tarbiyaning amalda yo'qligiga olib keldi.

Ta'lim islohoti, birinchi navbatda, sifatni tubdan yaxshilash, ya'ni O'zbekiston ta'lim muassasalarida kim va qanday o'qitish, real hayotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan va bugungi kun voqeligiga mos keladigan sharoitda amalga oshirilishi kerak. .

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агейчева А.Г. Развитие критического мышления у детей младшего школьного возраста / А.Г.Агейчева //Всероссийский



**2-TOM, 3-SON**

фестиваль педагогических идей «Открытый урок» 2006 – 2007 уч.г. – Режим доступа: <http://festival.1september.ru/>

2. Загашев И.О., Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Учим детей мыслить критически / И.О.Загашев, С.И.Заир-Бек, И.В.Муштавинская. – СПб.: Альянс-Дельта, 2003. – 192 с

3. Сориная Г.В., Смирнов А.А., Рубинштейн С.Л. Критическое мышление: история и современный статус / Г.В.Сорина, А.А.Смирнов, С.Л.Рубинштейн // Вестник Московского университета. – 2003. – №6. – С. 97 – 110.

4. Ушакова М.А. Формирование интеллектуально-творческих компетенций младших школьников (на примере интеграции учебной и внеучебной деятельности) / М.А.Ушакова. – Ижевск, 2011. – 65 с

5. Go‘zalikka intilib yashash hissi. Boshlang‘ich ta‘lim 1/2014. 13-b.

5. R.Mavlyanova, N. Rahmankulova “Boshlag‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” Toshkent “Vorish-nashriyoti” 2013.

6. H.Shokirova “Ta‘limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2013.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-oktabrda qabul qilingan Ta‘lim To‘g‘risidagi qonuni 9-moddasi.

8. Sarimsoqova, M.O., & Nizamova, M.N. (2022, December). Dudaqlanish. Dudaqlanuvchi o‘smir va kattalar bilan olib boriladigan ishlar metodikasi. In international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century (Vol. 1, No. 10, pp. 44 – 48).



2-TOM, 3-SON

9. Nuritdinovna, N.M., & Murtozaevna, M.M. (2022). Pedagogical mechanisms of developing professional mobility of future managers. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2 (1.5 Pedagogical sciences).

10. Nuritdinovna, N.M. (2022). Bola shaxsining shakllanishida psixologning o'ri. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 61 – 63.





## KOGNITIVLIK TAFAKKUR TARZINING FENOMENI SIFATIDA

**To'roqulova Ra'no Ibrogimovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya"  
kafedrası mustaqil izlanuvchisi Samarqand, O'zbekiston

Hozirgi davrda bilish, ijodkorlik va innovatsiya iqtisodiyot va ishlab chiqarishning, shuningdek, falsafa, fan va zamonaviy texnologiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Kognitiv fenomeni tafakkur tarzida evristik jihatdan ilm-fanda yangicha talqinda o'rganilmoqda.

Kognitivlik ijtimoiy fenomen sifatida bilish, o'rganish, intellektual rivojlanish jarayonidir. Demak, tafakkur tarzining shakllanishi ham murakkab kognitiv jarayondir. Tafakkur tarzida kognitiv fenomeni intellektual faoliyat bilan belgilanadi. Kishilarning tafakkur tarzini yuksaltirishda avvalo yuqori rivojlangan qobiliyat, konstruktiv tafakkur, kreativlikni shakllantirishimiz zarurdir. Bu borada ta'lim tizimiga, yoshlarga ilm va ta'lim olish uchn yaratayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyatga egadir.

"Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi muhim ahamiyatga egadir"<sup>1</sup>. Bunda esa fan, texnika va ta'limda yoshlarning keng ma'noda bilish salohiyati va tafakkur tarzini yuksaltirish lozimdir.

Kkognitivlik, murakkab o'z-o'zini tashkil qiluvchi mental tizim bo'lib, o'z tarkibiga tafakkur tarzi, bilish jarayoni, konstruktivlik, kreativlik, loyihalashtirish kabi epistemologik tushunchalarni birlashtiradi. Demak, tafakkur tarzining shakllanishi ham konstruktiv kognitiv jarayondir. Tafakkur formatining kognitiv birligini fikr tashkil etadi<sup>2</sup>. Har qanday yangi va innovasion fikr va g'oya konstruktiv xarakterga ega bo'lib, yangi tafakkur tarzining shakllashiga olib keladi.

Kognitivlik esa bunday fenomenda markaziy o'rinda turadigan epistemologik "kamar" vazifasini bajaradi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* –T.: "O'zbekiston", 2016. – B. 14.

<sup>2</sup> Кушаков Ш.С. *Опыт применения идеи форматов мышления к исследованию античной философии // Ма'naviy merosda vorislik va uning XXI asr ta'lim-tarbiyasidagi o'rni mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. Samarqand, 2021. - S.21.*

<sup>3</sup> Sultanova G.S. *Kognitivlik tushunchasining epistemologik taxlili. Jamiyat va innovatsiyalar (elektron jurnal). 8 (2021) maxsus son. - B. 401.*



## 2-TOM, 3-SON

Bilish jarayonida kognitiv uslub muxim bulib, insonlarni qanday fikrlashi, idrok etishi, axborot va ma'lumotlarni eslab qolishi ishlatiladigan ilmiy atamadir<sup>4</sup>. Lekin, keyingi yillarda bu atama epistemologiya doirasiga kirib bormoqda.

Tafakkur tarzi esa ijtimoiy ong shakllaridan kelib chikibi fikrlash tarzini bildiradi<sup>5</sup>. Kognitivlik esa bu fenomenda markazda turadigan epistemologik “kamar” vazifasini bajaradi.

Tafakkur tarzi tafakkurning ma'lum “qolipi”, “siymosi” yoki “turi” ko'rinishida namoyon bo'ladigan ruhiy-ma'naviy hosiladir. Kognitivlik fenomeni ggnoseologik, metodologik va regulyativ funksiyalarni bajaradi.

Kognitivlik, ya'ni bilish fenomeni tafakkur tarzining konstruktiv mohiyatini, ijtimoiy-madaniy jihatlarini ochib beradi. Kognitivlik fenomeni tafakkur tarzining evristik jixatlarini o'rganish hamda intellektual faoliyat sifatida ichki qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Yoshlarda tafakkur tarzida kognitiv jixatlarini kuchaytirishning falsafiy asoslari orqali tanqidiy tafakkur va ijodiy tafakkurni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2016. – B. 260.
2. Кушаков Ш.С. Опыт применения идеи форматов мышления к исследованию античной философии // Ma'naviy merosda vorislik va uning XXI asr ta'lim-tarbiyasidagi o'rni mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. Samarqand, 2021. - S. 20-24.
3. Sultanova G.S. Kognitivlik tushunchasining epistemologik taxlili. Jamiyat va innovatsiyalar (elektron jurnal). 8 (2021) Maxsus son. - B. 400-404.
4. Болбаков Р.. Анализ когнитивности в науке и образовании // Перспективы Науки и Образования, 2014, №4(10). - С. 17.
5. Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovatsiya. Monografiya. Globe edit. 2019. - B. 160.

<sup>4</sup> Болбаков Р. Г. Анализ когнитивности в науке и образовании // Перспективы Науки и Образования, 2014, №4(10). - С. 17.

<sup>5</sup> Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovatsiya. Monografiya. Globe edit. 2019. - B. 32..



2-TOM, 3-SON

ICHKI ISHLAR XODIMLARI FAOLIYATIDA DIVERGENT-KREATIV  
TAFAKKURNING NAMOYON BO'LISHI

**Shamsiyev Sardor Aslidinovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Yangi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy bunyodkorlik, zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ijodiy fikrlovchi kishilarni yetishtirish, ularni zamonaviy bilim va divergent-kreativ tafakkur bilan qurollantirish muhim davlat darajasiga molik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan "...mamlakatimizni innovasion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"<sup>1</sup>dir.

Insonning kreativligi bu ijtimoiy va intellektual faoliyat doirasiga kirgan shaxsning tub xususiyati, uning immanent xossasidir: shaxsning, uning qobiliyatlari va ko'nikmalarining rivojlanish darajasi, shuningdek, uning ijtimoiylashganlik miqyosi, uning ijodiy bunyodkorlik faolligi bilan belgilanadi. Kreativlik shaxsning bunyodkorlik, yaratuvchilik salohiyatini ro'yobga chiqaradi.

Kasbiy faoliyatda ichki ishlar xodimlarining ish jarayonida muammolarni aniqlashda chaqqonlik, xushyorlik, sezgirlik, ijodkorlik kabi kreativ shaxsning o'ziga xosligi va betakrorligi namoyon bo'ladi.

Inson faoliyati kreativlik bilan chambarchas bog'liq. Ichki ishlar xodimlarining bilimi, iste'dodi, qobiliyati, ko'nikmalari, ilmiy haqiqatning tubiga yetishga bo'lgan intilishlari ilmiy kreativlikda o'z aksini topadi. Jinoyatchilikni oldini olishda, muammolarni bartaraf etish jarayonida yangi uslub yoki yo'nalish yaratish kreativlikning ichki ishlar xodimlarining kasbiy, intellektual faoliyatidagi oliy ifodasidir. Bu shaxsning yaratuvchilik va bunyodkorlik qobiliyatlarini ifodalovchi belgilardan biridir<sup>2</sup>. Ichki ishlar sohasida xodimlarining yuksak natijalarga erishishi asosiy tanqidiy, divergent va kreativ tafakkurni kasbiy faoliyatida unumli foydalanishnidadir. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) – kishining oldin mavjud bo'lmagan innovasion g'oyalarni ishlab chiqarish, yaratuvchanlik, bunyodkorlikni mujassamlashtiruvchi ijodiy qobiliyatidir<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B. 237.*

<sup>2</sup>Boynazarov O.F. Kreativ tafakkurning shakllanishida informasion madaniyatning roli va ahamiyati (ontologik-gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2022. – B. 16.

<sup>3</sup>Sultanova G.S. *Ilmiy tafakkur tarzida konstruktiv kreativlik. Monografiya.S.: "SamDCHTI" nashriyoti. 2021. -B.133.*





## 2-TOM, 3-SON

Zero, tergovchilik faoliyatida va jinoyatchilikka qarshi kurashishda, jamoat havfsizligini saqlashda kreativlikning yorqin namunasi bo'lgan gorizonttal mohiyatga ega bo'lgan divergent tafakkurni deb hisoblash mumkin.

Ish jarayonida ichki ishlar xodimlarining an'anaviy tarzda ishlashidan ko'ra ijodiy tafakkur psixologiyasi bilan bog'liq holda divergent-kreativ tafakkurning mexanizmlari ancha samaral natijalarga olib keladi. markaziy o'rinda taqdim etilishiga sabab bo'ldi. Aynan divergent-kreativ tafakkur ichki ishlar xodimlarining ma'naviy-ahloqiy, intellektual qiyofasini belgilashda, kasbiy rivojlanishida ijodiy ma'noda jamiyat taraqqiyotida muhim konstruktiv rol o'ynadi. Vaholanki, ichki ishlar xodimlarida divergent-kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun davr va ijtimoiy muhit ham hal qiluvchi omillar qatoriga kiradi. Shu bois, divergent-kreativ tafakkur va ijodkorlik riojlangan davlatlarda keng taraqqiy etgan.

Kreativlik (ijodkorlik) - bu oldindan bilib bo'lmaydigan, original va noyob narsalarni yaratish qobiliyatidir. Bu ifodali, hayajonli va ijodiy bo'lishi kerak. Bu inson har qanday sharoitda ham qanchalik yaxshi fikrlay olishining ko'zguisidir<sup>4</sup>. Biror bir sohani tubdan o'zgartirish va inqilob yaratish uchun, yaratuvchi shaxsda yuksak kreativ tafakkur bo'lishi lozim. Noan'anaviy fikrlash orqali zamonaviy innovasion yangiliklardan foydalangan holda ish olib borilsa, divergent-kreativ tafakkur ichki ishlar xodimlarida o'z maqsadga erishishga yordam beradi.

Ichki ishlar sohasidagi xodimlarda yetuk kadrlarni divergent-kreativ tafakkurni rivojlantirish orqali yetishtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun bu sohadagi divergent-kreativ tafakkurga alohida e'tibor qaratish lozim. Ichki ishlar sohasida faoliyat yurituvchi barcha turdagi xodimlar avvalo, tanqidiy-kreativ fikrlovchi, ijodkor, hamda innovator bo'lib, o'ziga xos uslubiga va yo'nalishiga ega bo'lishi lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – B. 237.*
2. Boynazarov O.F. Kreativ tafakkurning shakllanishida informasion madaniyatning roli va ahamiyati (ontologik-gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2022. – B. 51.
3. *Sultanova G.S. Ilmiy tafakkur tarzida konstruktiv kreativlik. Monografiya.S.: “SamDCHTI” nashriyoti. 2021. -B.160.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – B. 237.*

<sup>4</sup>Боровинская Д.Н. Креативность и мышление: категориальная характеристика / Д.Н. Боровинская, В.А.Суровцев // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. - 2019. -№ 47. –С. 15-24.



2-TOM, 3-SON

TURIZM MADANIYATI VA XALQARO IJTIMOY-IQTISODIY  
MUNOSABATLAR

**Shakhzoda Sharipova Xasanovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Respublikamizda *turizm madaniyatini yuksaltirish istiqbolida* turistik salohiyatni tubdan yangilash, turizm infrastrukturasi shakllantirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini keng targ'ib qilish, mamlakatimizda xavfsiz turizmni ta'minlash, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro turizm bozoriga olib chiqish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi, - deb ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev, - Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat<sup>1</sup>. Hozirgi davrda O'zbekistonda xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda *turizm madaniyati asosiy* omillardan hisoblanmoqda.

*Turizm madaniyatini* rivojlantirish maqsadida dunyo tamaddunlari va madaniyatlarining tarixiy chorrahasida joylashgan Samarqandda Ipak yo'li Xalqaro turizm assotsiatsiyasini tashkil etish tarafdorimiz, - deb ta'kidlagan Shavkat Mirziyoyev, - Ushbu tashabbus doirasida mamlakatlarimizda har yili "Bir makon – bir yo'l" turistik forumlarini o'tkazishni taklif qilamiz<sup>2</sup>.

Madaniy turizm taraqqiyotiga halqning tarixiy moddiy va ma'naviy merosi, urf-odat va an'analari, marosim va bayramlari, madaniyati katta ta'sir ko'rsatadi.

*Turizm madaniyati iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm sohasining taraqqiyoti proporsional bog'liq.* Markaziy Osiyodagi mintaqaviy va xalqaro munosabatlarning rivojlanishida, sayyohlik aloqalarining taraqqiy etishida *turizm madaniyati* va ziyorat, tijorat maqsadidagi sayohatlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda TRASEKA dasturining amalga oshishi Xitoyning "Bir makon – bir yo'l" strategiyasini amalga oshirish rejalari bilan bog'liq bo'lib, Xitoydan Yevropaga yuklar va yo'lovchilar harakat qiladigan transport marshruti – "yangi Ipak yo'li"ning

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 174.*

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. *Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2019 yil, 308-309 b.*



## 2-TOM, 3-SON

ochilishi Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi turizmning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

**Turizm madaniyati** o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir.

**Turizm madaniyati bir qancha maqsadlarda tarmoqlashadi. Xususan** rekreatsiya, ijtimoiy maqsadlar, ishga aloqador va kasbiy (professional) maqsadlar, tanishlar, qarindoshlarnikiga tashrif buyurish, diniy (ziyorat) **kabi maqsadlar turizm madaniyatining muhim jihatlaridir.**

O'zbekiston tarixiy va zamonaviy Ipak yo'lining markazidagi, geosiyosiy va geoiqtisodiy muhim makonda joylashgan bo'lib, turizmni rivojlantirish masalasida katta salohiyatga egadir. O'zbekiston Ipak yo'li va ipak yo'li an'analarini qayta tiklash va rivojlantirishning yirik tashabbuskori va tarafdori bo'lib kelmoqda<sup>3</sup>. Turizm madaniyati xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish omili sifatida Buyuk ipak yo'li ma'naviy ko'priq vazifasini bajargan.

O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va an'analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlarni tiklash va takomillashtirish, ichki va tashqi turizmni yanada yuksaltirishda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali", "Maqom san'ati festivali", "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivali, "Xalqaro hunarmandchilik festivali", "Buyuk Ipak yo'li chorraxasida ziyorat turizmining renessansi" xalqaro anjumani, Xalqaro turizmi forumi, "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro folklor musiqa festivali kabi milliy musiqamiz, madaniyatimizni targ'ib va tashviq qiluvchi tadbirlar o'tkazilib, O'zbekistonda milliy turizmning taraqqiy etishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda<sup>4</sup>.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizm madaniyatini rivojlanishida geosiyosiy jarayonlar, tashqi siyosat, ekologik vaziyat muhim rol o'ynamoqda. Xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdag turizm madaniyati muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

<sup>3</sup> Xashimov Sh.J. *Buyuk Ipak yo'li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand-Shanxay. 2019 yil, - B. 191.*

<sup>4</sup> Xashimov Sh.J. *O'zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2022. - B. 16.*





2-TOM, 3-SON

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 472.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2019 yil, 308-309 b.
3. Xashimov Sh.J. Buyuk Ipak yo‘li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand-Shanxay. 2019, - B. 191.
4. Xashimov Sh.J. O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2022. – B. 45.



2-TOM, 3-SON

TA'LIM RUS VA QARDOSH TILLARDA OLIB BORILADIGAN  
MAKTABLARDA O'ZBEK TILI DARSLARINI BLUM TAKSONOMIYASI  
ASOSIDA TASHKIL ETISH

Ohangaron shahar 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi birinchi toifali o'zbek tili fani  
o'qituvchisi

**Nurmamatova Zulxumor Nurmamat qizi**

ANNOTATSIYA

O'quvchilar mustaqil ta'limini Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish bosqichlari, mohiyati va metodikasi berilgan. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili ta'limida o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish metodikasini tadqiq qilishning dolzarbligi ilgari surilgan. Blum taksonomiyasi asosida 10- sinflarda "Renessans" mavzusini o'qitishda foydalanish yo'llari ko'rsatilgan. O'quvchilar mustaqil ta'limi natijasida erishiladigan yutuqlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, Blum taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, baholash.

Ta'lim - bu o'quvchini o'qitish yoki ma'lum bir mavzuni o'rganish jarayonidir. Maqsad - bu odamlarning rivojlanishi, bilimlari, ta'sirchanligi, axloqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini yaxshilash. Bizning jamiyatimizda ta'lim bir-biridan bilimlarni uzatish va biz o'zimiz yashaydigan muhitga moslashishimiz va rivojlanishimiz uchun juda muhimdir. Shunday qilib odamlar jamiyatni oldinga siljitadigan va turg'un bo'lmagan bilim va ko'nikmalarni o'rganishlari mumkin bo'ladi. Shunday ekan o'zbek tili dars mashg'ulotlarini tashkil etishda biz mavzudan kelib chiqib turli metodlardan foydalanamiz. Bugungi kunda Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko'lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni

tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda maktablar, akademik litsey, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim.



## 2-TOM, 3-SON

Jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chiqish;
- pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning samarali yo'llarini tanlash va hokazo.

Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida o'quvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish kabi usullar mustaqil o'rganilgan, tahlil va muhokama qilingan ma'lumotlarning 90 foizini xotirada saqlanashi uchun imkon beradi. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, o'quvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa ularning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu maqsadda jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida o'quv maqsadlari taksonomiyasi vujudga kelgan. U o'quv maqsadlarini belgilashning eng ilg'or usuli bo'lib e'tirof etilgan. Biz yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqib ushbu ishda ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarini o'quv maqsadlari taksonomiyasi (B.Blum taksonomiyasi)dan foydalanib o'qitishning bir qancha metod va usullarini tavsiya etishni maqsad qilib qo'ydik.

Ta'limda o'qitish boyicha mutaxasisAmerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan 1956-yilda asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan.O'quv maqsadlari taksonomiyasi\_o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi aniq harakatlari, mazmunan





2-TOM, 3-SON

obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash

va sistemalashtirish nazariyasidir. O'quv jarayonidagi o'qitish taksonomiyasi esa oddiydan murakkabgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirib borish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, o'qitish jarayonlarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni berilgan ma'lumotlarni o'rganishi, tahlil qilishi, o'z bilimlarini mustaqil bayon qila olishlari, ma'lum bir vaziyatda munozaraga kirishishlari, o'zlarini dunyoqarashlarini va xulosalarini himoya qila olishlari hamda vaziyatni baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Blum taksonomiyasi aynan ana shunday jihatlarni o'quvchilarda rivojlantirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Blum taksonomiyasi quyidagi qismlardan iborat;

**1-bilish darajasi**

<b>O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI</b>	<b>O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari</b>
Axborotni takrorlash yoki tanib olish, ma'lumot va ma'lumotlarni esga olish yo'li bilan yodlab olinadigan toifadir. Bilish va fikrlash darajasi past. Ushbu darajada testlar, etishmayotgan belgilarni almashtirish, ta'riflar va nomlarni yodlash yoki takrorlash, jarayonlarning takrorlanishi yoki jarayonlarni takrorlash kabi vazifalar qo'llaniladi.	Amaldagi atamalar (eslaydi va takrorlaydi); <input type="checkbox"/> Haqiqiy faktlarni biladi; <input type="checkbox"/> Ish tartibini biladi; <input type="checkbox"/> Asosiy tushunchalarni biladi; <input type="checkbox"/> Qoidalarni, qoidalarni biladi.

**2-tushunish darajasi**

<b>O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI</b>	<b>O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari</b>
Bilim va fikrlash darajasi o'rtacha. O'quv materialini tushunish sifatida quyidagi	<input type="checkbox"/> Faktlarni, qoidalarni, tamoyillarni tushunadi;



2-TOM, 3-SON

<p>harakatlar ko'rib chiqilishi mumkin: tarjima - o'quv materialini bitta "tildan" boshqa "tilga" o'tkazish (masalan, matematik formulalarni og'zaki ravishda ifodalash; jadval, diagrammalarda og'zaki ma'lumotlarni taqdim etish va boshqalar); talqin - o'quv materialini "o'z so'zlari bilan", qisqacha tavsif; Bashorat qilish - suhbatning nima bo'lishini, uning oqibatlarini va natijalarini o'quv materiallari asosida bashorat qilish.</p>	<p><input type="checkbox"/> So'z materialini, sxemalarni, grafikalarini, diagrammalarni o'zgartiradi;</p> <p><input type="checkbox"/> Og'zaki materialni gapira oladi va tushunchalarga aylantiradi;</p> <p><input type="checkbox"/> Kelajakda ushbu ma'lumotlarni mumkin bo'lgan oqibatlarini tavsiflaydi</p>
--	--

3-qo'llash darajasi

O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI	O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari
<p>Bilim va fikrlash darajasi o'rtacha. Ushbu toifaga o'quv materiallarini haqiqiy vaziyatda va mutlaqo yangi vaziyatda qo'llash kiradi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarning amaliy qo'llanilishi kiradi. Ta'lim natijalari materialning rang darajasidan ko'ra chuqurroq mahorat talab qiladi.</p>	<p>Kontsepsiya va printsiplarni yangi vaziyatlarda qo'llaydi;</p> <p><input type="checkbox"/> Haqiqiy vaziyatlarda qonunlar va nazariyalarni amalda qo'llash;</p> <p><input type="checkbox"/> Usul yoki ish oqimi to'g'ri ishlatilganligini bildiradi.</p>

4-tahlil qilish darajasi

O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI	O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari
<p>Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining tuzilishini aniq qilish uchun uni tarkibiy qismlarga ajratib: butun qismlarni ajratib oling; butunning qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlang, butunning qanday tashkil etilganligini his qiling. Ushbu kategoriya, o'quv</p>	<p><input type="checkbox"/> Yashirin (ko'rinmas) narsalarni ochib beradi;</p> <p><input type="checkbox"/> Fikrni rivojlantirishdagi xato va kamchiliklarni aniqlaydi,</p> <p><input type="checkbox"/> Faktlarni va ularning oqibatlarini farqlaydilar;</p> <p><input type="checkbox"/> Taqdim etilgan dalillarning</p>



2-TOM, 3-SON

materialining mazmunini idrok etishdan tashqari, uning ichki tuzilishi qanday shakllanganligini ham anglatadi	ahamiyatini aniqlaydi.
---	------------------------

**5-sintez darajasi**

O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI	O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari
Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining elementlaridan innovatsion tabiatning bir butunini (natijasini) yig'ish. Yangi natija sifatida biz ta'lim materiallarini mutlaqo boshqacha tartibga soluvchi xabarni (hisobot, nutq), ish rejasini, sxemalarni eslatib o'tamiz. Bunday o'quv natijalari yangi mazmun va yangi tuzilmalarni yaratadigan ijodiy faoliyatdan foydalanishni talab qiladi.	Qisqa ijodiy ish (insho) yozadi; <input type="checkbox"/> Eksperiment uchun o'z rejasini taqdim etadi; <input type="checkbox"/> Har qanday muammoni hal qilish uchun o'z bilimlaridan ijodiy foydalanadi.

**6-baholash darajasi**

O'QITISH MAQSADINING ASOSIY KATEGORIYALARI	O'quvchi natijalari ko'rsatkichlari
Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. Ushbu daraja oldingi toifalarning o'rganish natijalariga erishishni anglatadi.	O'quv materialining tuzilish mantig'ini yozma ravishda baholaydi; <input type="checkbox"/> Ichki yoki tashqi mezonlar asosida o'quv materialining ahamiyatini aniqlaydi; <input type="checkbox"/> Qaror va xulosalarning faktlarga bog'liqligini aniqlaydi.

**BU MUHIM!** Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar,





## 2-TOM, 3-SON

mezonlar, yoʻnalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga taʼrif berishi, maʼlumotlarni qayta ishlashlari, oʻz fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeaning oʻziga xos xususiyatlarini ajratib koʻrsatishi kerak boʻladi.

Mavzu: Renessans (10-sinf).

### BILISH

1. Yangi mavzuniga oid faktologik matnlarni oʻqiganda, eshitganda undagi detallarni tushunish.

3. Oʻquvchilarni oʻzbek tilini hurmat qilishga oʻrgatish.

Qoʻllaniladigan usul	Tushuntirish, savol-javob
Dars turi	aralash
Texnologiya	H. A. Оразахынова “Сатылай комплексти талдау”
Koʻrgazma vositalari	Rasmlar, sinov, proektor
Integratsiya	Rus tili, matematika

### BILISH DARAJASI

- “Tib qonunlari” kitobini kim yozgan?
- Z.M. Bobur kim boʻlgan?
- Feʼl qanday soʻroqlarga javob boladi?

### TUSHUNISH

*Oʻquvchilarga oʻtgan zamon feʼllari haqida maʼlumot bering va tushuntiring.*

#### **Diqqat qiling!**

Men bor(moq) -dim.

Sen bor(moq) -ding.

U bor(moq) -di.

Biz bir(moq) -dik.

Siz bor(moq)-dingiz.



2-TOM, 3-SON

Ular bor(moq) -dilar.

**1) daftarda ishlash (qog'ozga yozish)**

yetishtirib bermoq – tayyorlamoq

asos solmoq – tashkil qilmoq

tarjima qilinmoq – o‘girilmoq

to‘plamoq – yig‘moq

yaratmoq – vujudga keltirmoq

**2) matnni tinglab tushunish**

Berilgan terminlarning izohini toptiring va yozdiring.

№	Tushuncha	Tahlil
1	Alloma	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug‘ullanuvchi olim, mutaxassis.
2	Mutafakkir	Ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim
3	Faylasuf	Fikr yurituvchi, chuqur falsafi y fi krlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi
4	Kashfi yotchi	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.

Matematik munozara bilimlari  $5 = 2 + 3$

Oyna  $6 = 3 + 3$   $16 = 3 + 3$  ni biladi

D) soatlik daqiqalar.

**3) kitob ustida ishlash**

**TAHLIL QILISH**

1. Al-Farg‘oniy Samarqandda tug‘ildi. **Noto‘g‘ri 9**

2. U yunon olimlarining asarlarini o‘qish uchun yunon tilini o‘rgandi. **To‘g‘ri**

3. Al-Farg‘oniyning asarlari lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **To‘g‘ri**

4. Olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”i Yevropa universitetlarida matematika fani bo‘yicha darslik sifatida foydalanilgan. **Noto‘g‘ri**

59. “Astronomiya asoslari haqida kitob” asarida geografi yaga oid bo‘lim ham bor.

**To‘g‘ri**



2-TOM, 3-SON



**QO'LLASH**



Rasm asosida matn tuzing.

**BIRLASHTIRISH (SINTEZ) o'tgan zamon bilan.**

- |              |            |
|--------------|------------|
| 1.Ot nomi    | 1. Sakradi |
| 2.Harakati . | 2.Beshta   |
| 3.Belgisi .  | 3.Qizil    |
| 4.Soni       | 4.Inson    |

**Baholash**

Baholashga oid, ya'ni maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash uchun tuzilgan testlar bilan ishlash asnosida o'quvchi o'z bilimlarini ichki va tashqi mezonlar asosida baholashni o'rganadi.



**VAZIFA!**

“Al-Xorazmiy va algebra” mavzusida ma'lumotlar to'plab, ulardan matn tuzing.

Ta'lim-tarbiya jarayonida Blum taksonomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyligi, keng qamrovliligini ta'minlaydi. Barcha fanlar qatori o'zbek tili darslarida ham o'quvchilarga ma'lumot berishda ta'limning ilg'or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va turli





## **2-TOM, 3-SON**

interfaol metodlar asosida ta'lim berish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Qolaversa, zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi kasb mahoratining turli qirralarini namoyon etishi ham bu davr talabidir.

Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'rgatishda o'quvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etishda B.Blum taksonomiyasi asosda yondashuv ularning xayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omillardan ekanligi asoslandi. Blum taksonomiyasi asosida o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillar mustaqil ta'lim olish jarayoni samaradorligini oshirishda muhim axamiyat kasb etadi.

Blum taksonomiyasini o'zbek tili darslarida yuqori sinflarda qo'llashni tavsiya etgan bo'lardik. Yangi chiqqan, amaldagi dasligimiz 6-7-10-sinf uchun berilgan mavzularimizda qo'llanma bo'la oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Foydalanilgan adabiyotlar 1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –Toshkent: 1997.
2. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N - Y., McGraw-Hill, 1971. – s-232. 3. Farberman B. L. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent: 2002 . 4. Ismoilova I. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent: 2002.
3. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent: "Fan", 2005.
4. Mengliev B. Ona tili ta'limi: Davr talabi va ijtimoiy zarurat. "Ma'rifat" gazetasi, 2017 yil, 22-fevral soni, 8-9-b.
5. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007.
6. Mengliev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. –Toshkent: 2010.
7. Pedagogika. Darslik. R. Mavlonov tahriri ostida. –Toshkent: O'qituvchi,2001
8. O'zbek tili [Matn]: 10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / Dilafruz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 196 b
9. Kuysinov O.A. Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. R.251-257



**2-TOM, 3-SON**

**10.** Kuysinov O.A. Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency. «Actual problems of modern science, education and training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750. KHOREZMSCIENCE.UZ. P. 4-8

**11.** Kuysinov O.A., Abduraimov Sh.S., Mamamtov D.N., Zaripov Z.R., Abduraimova G. Stages of Inter-Integration in Ensuring the Quality of Training and Employment of personnel. «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION» Scopus Journal. Vol.37, №.2, 2022. ISSN 0827-33-83. <http://internationaljournalofspecialeducation.com> P. 338-348



2-TOM, 3-SON

EYE/KO'Z SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING SEMANTIKASI

Termiz davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasida  
o'qituvchisi

**Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi**

[boboqulovanilufar237@gmail.com](mailto:boboqulovanilufar237@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Ko'z" somatik komponentli nomi ostida o'zbek va ingliz maqollarda uchraydigan ko'z somatizmini, uning semantikasini va ta'sirini o'rganadi. Maqola o'zbek va ingliz xalqlarining maqollari bo'yicha ko'zning ahamiyatini, ularning turli ma'nolarni ifodalash usullarini, ko'zlar bilan bog'liq maqollar tahlil qiladi. Maqola o'zbek paremiologiyasida va ingliz maqollarida ko'z somatizmini, uning metonimik va metaforik ma'nosini, turli maqollarda ishlatilishini, ko'zlar orqali insonning ichki xususiyatlarini tushunishni ko'rsatuvchi somatik komponentli maqollar tahlili.

**Kalit so'zlar:** ko'z, somatik, maqollar, semantika, xususiyatlar, farqi, metafora.

Termez state pedagogical institute Teacher of the department of foreign languages  
theories and methods

**Bobokulova Nilufar Xayrullo qizi**

[boboqulovanilufar237@gmail.com](mailto:boboqulovanilufar237@gmail.com)

ANNOTATION

The article explores the semantic aspects of the somatism "Eye" in the Uzbek and English linguistic cultures, analyzing its various meanings and expressions found in proverbs and sayings. It examines how the concept of "Eye" is utilized as a metaphor and metonymy in both languages, reflecting cultural attitudes and perceptions. The article highlights the significance of the "Eye" as a symbol of perception, emotions, and moral qualities, shedding light on its role in conveying deeper human experiences and values. Through a comparative analysis of Uzbek and English proverbs, the article provides insights into the cultural significance and linguistic nuances associated with the concept of "Eye" in these two linguistic traditions.

**Key words:** eye, somatic, proverbs, semantics, characteristics, difference, metaphor





## 2-TOM, 3-SON

### KIRISH

Somatizmlar - bu odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma'nosiga ega bo'lgan otlar. Bu atama biologiya va tibbiyotda "inson tanasi bilan bog'liq narsa" ma'nosida ishlatilishi mumkin va "aqliy" tushunchasiga qarama-qarshidir. Inson o'zini shaxs sifatida anglab, uning his-tuyg'ulari va tanasining qismlari orqali unga ko'rinadigan sezgilardan boshlanadi [1; B. 25].

**Ko'z** - tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. Ko'zlar insonning eng muhim organlaridan biridir, chunki ular insonning dunyoni ko'rish uchun "oyna" hisoblanadi. Ko'zlar tufayli odam tashqi dunyo ob'ektlari haqida deyarli barcha ma'lumotlarni oladi, bu ko'zlar atrofdagi haqiqatni idrok etishning asosiy vositalaridir.

### ASOSIY QISM

O'zbek paremiologiyasida ko'z komponenti asl ma'nosida quyidagi sifatlar yordamida aniqlandi: *ko'r, og'riq, dono, ahmoq, yaxshi, yomon*. Bu yerda bu ta'riflar belgi, ong bilan bog'liq inson xususiyatlarni beradi. Ingliz paremiologiyasida *eye/ko'z* somatik komponenti o'zining somatik ma'nosida quyidagi sifatlar bilan belgilanadi: *evil - badjahl, lovely chiroyli, bad-yomon, blind -ko'r*. Ingliz va o'zbek maqollarida ko'z tushunchasi insonning hasad tuyg'usini aks ettiradi: "*hasadli ko'zlar*", "*nafratli ko'zlar*"; "*the envies eyes*", "*jaundiced eyes*". Bu tuyg'u salbiy baholanib, sog'liq va xotirjamlik uchun zararli hisoblanadi. Ingliz maqollarida hasadgo'y odam ko'zlari hasad bilan boqsa ahmoq odam hisoblanadi: *An envious man is a squint-eyed fool* (Hasad - odamni ahmoq va noxolis kuzatuvchiga aylantiradi). O'zbek maqollarida esa hasadgo'ylikni oldini olish uchun quyidagi maqollar mavjud: *Ko'z-ko'z qilma, ko'z tegar, Maqtanchoqqa so'z tegar*; Yoki kimnidir ko'rolmaslik va hasadgo'ylikka nisbatan: *O'zi bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi* maqoli ishlatiladi. O'zbek va ingliz paremiologiyasida bu somatizmni harakat predmeti sifatida ko'rib, u ko'zlar harakatni o'zi bajarishi yoki ba'zi salbiy ta'sirlarni boshdan kechirishi mumkin bo'lgan fe'l birikmalarini hosil qiladi. Ko'zlar ko'z yoshlari bilan bog'liq bo'lib, u o'zbek va ingliz paremiologiyasida qayd etilgan: *Eyes that do not cry, do not see* (Ko'z yoshni ushlab turish, hayotni anglashni cheklaydi) yoki *Kulib gapirgan erkakdan, ko'z yosh bilan so'zlovchi ayoldan qo'rq*. Lekin ingliz tilida *eye/ko'z* somatik komponentli maqollarda fe'l so'z turkumi kelsa, lekin o'zbek tilida ko'pincha ot so'z turkumi keladi: *Og'riq-og'riq-ko'z og'rig'i, Har kimsaning o'z og'rig'i*.

*Eyes/ko'z* somatik komponentli bir qator paremiyalarda bu somatizm ham metaforik, ham metonimik ma'noda ishlatilishi mumkin. Ko'zlar qalbning ko'z gusi bo'lib, insonning turli ruhiy holatini bildiradi: *Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas; Ko'zdan nari — ko'ngildan nari; Ko'zdan tushgan tildan ham tushar; Ko'z-inson qalbining ko'z gusi; Ko'z ko'zga*



## 2-TOM, 3-SON

tushsa, mehr qo'zg'alar; Ko'z ko'rganini qilar, Kosov — tutganini; Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas; Ko'z qayerda bo'lsa, Mehr ham o'sha yerda; Sevgining ko'zi ayb ko'rmas, Suygan yordan ko'z ketmas. Ko'ngil bu yerda yurak ma'nosini berib, unda sevgi his-tuyg'usini o'zida nomoyon etadi. Ingliz tilida ham xuddi shunday: *The eyes are the mirror of the soul* (Ko'z – qalb ko'z'gusi); *The eyes are the window of the soul* (Ko'z – qalblar chirog'i). Majoziy (*metaforik*) ma'noda bu maqol insonning ko'zlari uning haqiqiy his-tuyg'ularini, niyatlarini va xarakterini aks ettirishi mumkinligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, bironing ko'ziga qarash orqali uning ichki fikrlari va his-tuyg'ularini tushunish mumkin. Ko'zlar, bu nuqtai nazardan, samimiylik, halollik va hissiy chuqurlikni anglatadi: *Og'riq-og'riq-ko'z og'rig'i*, *Har kimsaning o'z og'rig'i*; *Yomon qiliqdan – ko'zga yosh*, *Yaxshi qiliqdan – og'izga osh*.

Eye/ko'z o'zbek va ingliz maqollari tashqi go'zallikni qoralashni aks ettiradi: *Qo'rqqoqning ko'zi katta*, *Ahmoqning — so'zi*; Ingliz maqollarida tashqi go'zallikdan ko'ra ichki go'zallik muhimroq ekanligini ko'rish mumkin. Nafaqat ingliz tilida, balki o'zbek tilida ham xuddi shunday: *Choose a wife by your ear, rather by your eye* (Xotinni ko'zing bilan emas, qulog'ing bilan tanla). Bu ikki maqol ma'nosi ham so'zlarning tuzilishi ham bir xil.

Ingliz maqollarida ko'zlar insonning sevgisini aks ettirsa, chinakam go'zal hisoblanadi: *Beauty is in the eye of the beholder* yoki *Beauty lies in lover's eyes* (Sevgan ko'zlarda chiroy aks etadi) [5; B.67].

O'zbek va ingliz tillaridagi maqollarda ko'zni metafora sifatida, oshqozonni to'ldirish darajasi deb tushunish mumkin, uning yordamida odamning ochko'zlik darajasini aniqlashni ko'rsatadi: *Nokasning o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas*; *Ochning qorni to'ysa ham, ko'zi to'ymas*; *O'zi to'yamanning ko'zi to'ymas*; *O'zi egarning qoshida, Ko'zi qozonning oshida*; *O'tinchining ko'zi o'mchada*; *Qorinni to'yg'azish oson, Ko'zni to'yg'azish qiyin*; *Qorni ochga non bo'lsa bas, Ko'zi ochga dunyo yetmas*. Ingliz tilida esa: *A greedy eye enlarges the common purse* (Ochko'z ko'z umumiy hamyonni kengaytiradi) [2; B. 34]. *The greedy have a thousand eyes, the contented only one* (Ochko'zning ming ko'zi bor, qanoatkorning bir ko'zi bor). Ingliz maqollarida odamning ko'z o'ngida yolg'onga salbiy munosabat, uning ikki yuzlamachiligi, tovlamachilik bilan yomon niyatlarini yashirishga urinishlar kuzatilishi mumkin bo'lgan maqollar aniqlandi: *The world is built on lies, and the truth stings the eyes* (Dunyo yolg'on ustiga qurilgan, haqiqat esa ko'zni chaqadi) [10; B.81]. O'zbek tilida esa: *Ko'zi bilan o'padi, Dili bilan tepadi*.

### XULOSA

Maqolada o'zbek va ingliz tilidagi "Ko'z" somatizmining ta'riflari, ularning turli ma'no va ifodalash shakllari, ularning jamiyatda muhimiyati va ta'siri haqida tushuncha



## 2-TOM, 3-SON

berilgan. O'zbek va ingliz xalqlari o'rtasidagi ko'z somatizmi va uning ma'noni ifodalash usullari, ma'naviyatga, adabiyotga va ma'rifatga oid muhim asosiy material sifatida qaraladi. Bu maqola o'zbek va ingliz tilidagi "Ko'z" somatizmining ta'riflari, ularning turli ma'no va ifodalash shakllari, ularning jamiyatda muhimiyati va ta'siri haqida tushuncha berilgan.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 297 с.148
2. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с
3. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. М., 1988. 400 стр.
4. Реформатский А. А. Введение в языковедение - М.: Аспект Пресс, 1996 – 536 стр.
5. Concise Oxford English Dictionary/ Oxford University Press, 2008. – 1773 p.
6. English proverbs and proverbial phrases- Hazlitt, William Carew. London: Reeves and Turner, 1907.
7. Oxford Dictionary of English, 2nd edition, revised. - Oxford, New York. Oxford University Press – 2005.
8. English proverbs and proverbial phrases- Hazlitt, William Carew. London: Reeves and Turner, 1907.
9. Longman Dictionary of English Language and Culture. Fifth Edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2002.
10. Johnson A. Common English Proverbs. - London, 1965.





2-TOM, 3-SON

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ТАРИХИГА ОИД  
ХУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ  
(Ўзбекистон Миллий архив хужжатлари мисолида )

**Ш.Ш.Чориев**

Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети доценти

Email: [sherzodch@rambler.ru](mailto:sherzodch@rambler.ru)

Ҳар қандай давлатнинг ижтимоий ва иқтисодий сиёсати ўзаро боғлиқ бўлиб, иқтисодий сиёсатнинг бош мақсади - ушбу жамиятда яшаётган фуқаролар турмуш фаровонлигини таъминлаш, яъни ижтимоий сиёсатга хизмат қилишдан иборат. Шу нуқтаи назардан қараганда ушбу икки сиёсат ўртасидаги мувозанатни, уларнинг ўзаро тўғри нисбатининг белгиланиши жамиятда ижтимоий адолат ўрнатилишининг муҳим шартларидан саналади. Давлат ижтимоий сиёсати деганда аҳоли ҳаёт кечириш даражасини шакллантириш, инсон капиталини қайта яратиш, ижтимоий хизматлар кўрсатиш, ижтимоий инфратузилмаларни барпо этиш, уларнинг бир маромда фаолият юритишини таъминлаш соҳасида муайян давлат томонидан олиб борилаётган ички сиёсат йуналиши назарда тутилади. Шунини қайд этиб ўтиш лозимки, давлат иқтисодий ва ижтимоий сиёсатида ўзаро нисбатнинг бузилиши, яъни аҳоли турмуш даражасининг пасайтирилиши ҳисобига жамғаришга зўр берилиши, иқтисодий сиёсатни кучайтиришга уриниш кўпчилик ҳолларда салбий натижаларга олиб келаётганлиги, бунда ҳам ижтимоий аҳвол ёмонлашиб, кетаётганлиги ва айни пайтда давлат иқтисодий тараққиёти ҳам орқага кетаётганлиги собиқ СССР таркибига кирган мустақил давлатларнинг айримлари тажрибасидан аён бўлмоқда.

Туркистон АССР даврида дастлаб ижтимоий таъминот вазифалари Меҳнат халқ комиссарлиги, Ер ишлари халқ комиссарлиги каби турли комиссарликлар ва ташкилотларга тақсимланган эди. Ижтимоий таъминот комиссарлигининг дастлаб асосий вазифаси қаровсиз қолган болалар учун болалар уйлари очиш ва улар фаолиятини назорат қилиш бўлган. Шунингдек, деҳқонларни қўллаб қувватлаш, ўз-ўзини моддий таъминлаш масалалари билан шуғулланган бўлса, 1930 йилларда Ижтимоий таъминот комиссарлигининг бошқарув вазифаларига ногиронларни иш билан таъминлаш ҳам киритилган.

1924 – 1941 йилларда Ўзбекистонда ижтимоий таъминот масалаларида бир қатор ишлар амалга оширилди. Айнан, ушбу жараёнларга тегишли тарихий далиллар



## 2-TOM, 3-SON

турли хужжатларда сақланиб келмокда. Ушбу тарихий жараёнларга доир архив фондларини бир катор гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Ўзбекистон ССР ҳукумати ҳисоботлари
2. Ўзбекистон ССР Марказий органларининг архив фондлари
3. Ўзбекистон ССР Ижтимоий таъминот халқ комиссарлиги фонди
4. Ўзбекистон ССР Касаба уюшмалари фондлари
5. Ўзбекистон ССР Молия комиссарлиги фонди
6. Ўзбекистон ССР МИҚ ҳисобот нашрлари

Архивда Ўзбекистон ССР 1924 – 1941 йиллардаги ижтимоий таъминот масалалари тарихини ёритишда Ижтимоий таъминот халқ комиссарлиги Р-96-фонди муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон ССРда Ижтимоий таъминот комиссарлиги архив хужжатлари бугунги кунда Ўзбекистон Миллий архивининг Р-96-фондида сақланган. Фонд таркибида 1, 2, 3 ва 4 та рўйхатлари бўлиб, 1924 – 1987 йилларни қамраб олади. 2-рўйхат икки жилддан иборат бўлиб, ушбу рўйхатнинг 369 – йиғмажилдигача бўлган хужжатлар 1924 – 1941 йилларни қамраб олган. 4-рўйхат эса комиссарликда фаолият олиб орган ходимларнинг шахсий йиғмажилдлари сақланган. Шу ўринда айтиш лозимки, фуқаролар ушбу комиссарликда фаолият олиб борган қариндошлари ҳақида маълумотлар ҳам олишлари мумкин. Шахсий таркиб хужжатлари таркибида уларнинг миллати, иш фаолият йиллари ва бошқа автобиографик маълумотлар сақланган<sup>1</sup>.

Фонд таркибида комиссарликнинг кўплаб йиллик ҳисобот хужжатлари сақланган бўлиб, уларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Статистик
2. Молиявий
3. Ишга жойлаштириш
4. Комиссарлик таркибидаги жамиятлар ва бошқармаларнинг йиллик ҳисоботлари.

Рўйхатларда 1926, 1933-1934, 1935-1936, 1937, 1940 ва 1941 йилларнинг йиллик ҳисоботлари сақланиб қолган бўлиб, уларда республикадаги ижтимоий таъминот масалалари ҳақида маълумот берувчи муҳим тарихий маълумотлар сақланган<sup>2</sup>. Хусусан, фонд таркибида Ўзбекистон ССР МИҚ, Инқилобий кўмиталар ва ХКСнинг қарорлари; РСФСР ва Ўзбекистон ССР Ижтимоий таъминот халқ комиссарлигининг

<sup>1</sup> ЎзМА, Р-96-фонд, 4-рўйхат таҳлили.

<sup>2</sup> ЎзМА, Р-96-фонд, 2-рўйхат таҳлили



## 2-TOM, 3-SON

циркулярлари, буйруқлари ва кўрсатмалари, Ўзбекистон ССР Ижтимоий таъминот халқ комиссарлигининг буйруқлари; комиссарлик кенгаши ва унинг ҳузуридаги шахсий пенсия ва нафақаларни тайинлаш комиссияси, ижтимоий таъминот бўлимларининг ҳисоботлари ва маърузалари жамланган.

Республикадаги ижтимоий муммоларни ёритишда Ўзбекистон ССР Меҳнат халқ комиссарлигининг Р-97-фонд ҳужжатлари ҳам алоҳида ўрин тутди. Фонд таркибида ягона рўйхат бўлиб, сўнгги маълумотларга кўра рўйхатда 954 та йиғмажилд сақланган. Рўйхат таркибидаги ҳужжатларга шахсий келиб чиқувчи ҳужжатлар ҳам қўшиб юборилган.

Фонд таркибида СССР ва Ўзбекистон ССР МИҚ ва ХКС, Меҳнат халқ комиссарликлари мажлисларининг Ўзбекистон ССР корхоналари ва муассасаларида меҳнатни ташкил этиш, хавфсизлик, ишчилар ва ўспиринларнинг меҳнат ва яшаш шароитларини яхшилаш, аёллар иш ҳақини тартибга солиш, ижтимоий суғурта органларининг иш ҳолати бўйича қарорлари ва баённомалари сақланган.

Шунингдек, 1925 йил Тошкент шаҳрида СССР Меҳнат халқ комиссарлигининг Ўрта Осиёдаги ваколатли бошқармаси ташкил этилган. Бошқарма ҳужжатлари Р-328-фондда сақланган бўлиб, унинг таркибида меҳнат шарт-шароитлари масалалари бўйича Ўрта Осиёда меҳнат бозори ва меҳнатни муҳофаза қилиш масалаларига оид ҳужжатлар ҳам сақланган.

Республикада шундай жамият ва кўмиталар ҳам фаолият олиб борганки, улар бевосита инқилоб курашчилари уруш ногиронлари, касал ва ярадор қизил армия аскарлари ва уларнинг оилаларига кўмаклашиш вазифаларини бажарган. Масалан, Ўзбекистон ССР инқилоб курашчиларига ёрдам бериш халқаро жамияти марказий кўмитаси (ЦК МОПР Узбекской ССР, Р-126-фонд), Ўзбекистондаги уруш ногиронлари, касал ва ярадор қизил армия аскарлари ва уларнинг оилаларига кўмаклашиш жамият (Р-421) ларининг архив фондларида инқилоб жангчиларига кўмаклашиш халқаро жамияти ижроия кўмитаси ва СССР инқилоб жангчиларига кўмаклашиш халқаро жамияти марказий кўмитасининг маълумотлари, уруш ногиронлари, касал ва ярадор қизил армия аскарлари ва уларнинг оилаларига кўмаклашиш масалаларига оид муҳим ҳужжатлар сақланган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, таъкидлаб ўтилган архив фондларида Ўзбекистон ССРда ижтимоий таъминот масалаларини ёритишда ушбу фондлар муҳим манбавий аҳамиятга эга ҳисобланади. Ушбу фондларда ижтимоий таъминот соҳасининг ташкил этилиши, пенсия ва нафақалар турлари, пул миқдорлари ҳақида муҳим маълумотлар жамланган.





**2-TOM, 3-SON**

**Фойдаланилган манбалар:**

1. ЎзМА, P-96-фонд, 1, 2, 3 –рўйхатлар таҳлили.
2. ЎзМА, P-96-фонд, 4-рўйхат таҳлили.
3. ЎзМА, P-96-фонд, 2-рўйхат таҳлили
4. ЎзМА, P-328-фонд
5. ЎзМА, P-421-фонд
6. ЎзМА, P-126-фонд



2-TOM, 3-SON

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR  
FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Xoliyarova Feruza Xafizovna**

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti

**Zayniyev Tahir Ruslanovich**

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilini samarali o'rgatishning bir necha usullari hamda til va uni o'rganishda foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ham bir nechtasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Til, ingliz tili, tilni mustaqil o'rganish, ta'lim texnologiyalari, loyiha, qiziqish, faollik, interaktiv metodlar.

Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchining asosiy maqsadi va asosiy e'tibori o'quvchi, uning shaxsiyati va o'ziga xos ichki dunyosiga qaratilgan. Shuning uchun buni tashkil etish usullari va shakllarini tanlashdir o'quv faoliyati shaxsiy rivojlanishning belgilangan maqsadiga optimal darajada mos keladigan talabalar. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondoshishdir. Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir.

O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi uchun tilni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o'rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet- resurslar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning o'rganish darajasini hisobga olgan holda o'qitishning individualizatsiyasi va farqlanishini ta'minlaydi. Chet tili darslarida kompyuterni o'qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so'z boyligini o'rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o'rgatish; yozishni o'rgatish; grammatik hodisalarni ishlab chiqish.

Internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet



## 2-TOM, 3-SON

dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotni olish uchun sharoit yaratadi: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqalar.

Darslarda ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni hal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktab o'quvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; talabalarning so'z boyligini to'ldirish; talabalarning ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini shakllantirish. Bundan tashqari, bu ish maktab o'quvchilarining ufqini kengaytirish, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda tengdoshlari bilan ishbilarmonlik munosabatlari va aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun Internet-texnologiyalar imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Talabalar Internetda o'tkaziladigan testlar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etishlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan yozishmalar, suhbatlar, videokonferentsiyalar va h.k.larda qatnashishlari mumkin.

Maktabda chet tilini o'rganishning asosiy maqsadi kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishdir, boshqa barcha maqsadlar (tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish) ushbu asosiy maqsadni amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi. Kommunikativ yondashuv muloqotni o'rgatish va Internet faoliyatining asosi bo'lgan madaniyatlararo ta'sir o'tkazish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Aloqa tashqarisida Internetning ma'nosi yo'q - bu xalqaro ko'p millatli, madaniyatlararo jamiyatdir, uning hayoti dunyodagi millionlab odamlarning elektron aloqasiga asoslangan bo'lib, bir vaqtning o'zida gaplashmoqda - bu sodir bo'lgan ishtirokchilar soni va hajmi bo'yicha eng katta suhbat. Unga darsda qatnashish xorijiy til, biz haqiqiy aloqa modelini yaratamiz.

Hozirgi vaqtda aloqa, interaktivlik, muloqotning haqiqiyliigi, madaniy sharoitda tilni o'rganish, ta'limning avtonomligi va insonparvarligi masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo kompetentsiyani kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga imkon beradi. Chet tillarni o'qitishning yakuniy maqsadi chet tilidagi muhitda erkin yo'nalishni va turli vaziyatlarda etarli darajada javob berish qobiliyatini o'rgatishdir, ya'ni. aloqa. Chet tilida muloqotni o'rgatish uchun siz materialni o'rganishni rag'batlantiradigan va etarli xulq-atvorni rivojlantiradigan haqiqiy, haqiqiy hayotiy vaziyatlarni yaratishingiz kerak (ya'ni aloqa haqiqiyliigi printsipi deb ataladi). Yangi texnologiyalar, xususan Internet ushbu xatoni tuzatishga harakat qilmoqda. Kommunikativ yondashuv - bu materialni ongli ravishda anglashga va u bilan ishlash usullariga, muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni yaratishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiya. Foydalanuvchi uchun Internetda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish ayniqsa qiyin emas.





## 2-TOM, 3-SON

Kommunikativ vazifa talabalarga muammo yoki savolni muhokama qilish uchun taklif qilishi kerak, talabalar nafaqat ma'lumot almashadilar, balki ularni baholaydilar. Ushbu yondashuvni o'quv faoliyatining boshqa turlaridan ajratib olishga imkon beradigan asosiy mezon - talabalar o'z fikrlarini shakllantirish uchun mustaqil ravishda lisoniy birliklarni tanlashidir. Kommunikativ yondashuvda Internetdan foydalanish juda yaxshi rag'batlantiriladi: uning maqsadi o'quvchilarga bilim va tajribalarini to'plash va kengaytirish orqali chet tilini o'rganishga qiziqishdir.

Internet-resurslardan foydalangan holda chet tillarini o'rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishdir, bu odatda metodikada interaktivlik deb nomlanadi. Interaktivlik - bu "nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish". Haqiqiy tilni o'rgatish orqali Internet nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek lug'at va grammatikani o'rgatishda samimiy qiziqish va shuning uchun samaradorlikni ta'minlaydi. Interaktivlik nafaqat hayotdan real vaziyatlarni yaratibgina qolmay, balki talabalarni chet tilida ularga munosib javob berishga majbur qiladi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydigan texnologiyalardan biri bu ijodkorlik, bilim faoliyati va mustaqillikni rivojlantirish usuli sifatida loyiha uslubidir.

Loyiha usuli o'quvchilarning muloqot qobiliyatini, muomala madaniyatini, fikrlarni ixcham va oson shakllantirish qobiliyatini, aloqa sheriklarining fikriga toqat qilishni, turli xil manbalardan ma'lumot olish qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda qayta ishlaydi, tabiiy ehtiyoj paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan til muhitini yaratadi.

Xorijiy tillar jarayonida loyiha usuli deyarli har qanday mavzu bo'yicha dastur materiallari doirasida ishlatilishi mumkin. Loyihalar ustida ishlash tasavvur, fantaziya, ijodiy fikrlash, mustaqillik va boshqa shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Til portfeli texnologiyasida chet tilini bilish darajasini baholashning asosiy mezonlari sinov hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ustuvor yo'nalishi ta'lim jarayonini o'qituvchidan o'quvchiga yo'naltirishdir. O'quvchi, o'z navbatida, uning bilim faoliyati natijalari uchun ongli ravishda javobgardir. Yuqoridagi texnologiya talabalarning ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirish ko'nikmalarini bosqichma - bosqich shakllantirishga olib keladi. Umuman olganda, til portfeli ko'p funktsional bo'lib, ko'p tillilikning rivojlanishiga hissa qo'shadi.



**2-TOM, 3-SON**

**REFERENCES**

1. Cowie A.P. 1990. Language as words: lexicography. – Collinge N.E. (ed.) An encyclopedia of language. London

2. Девкин В.Д. Словари, которые не напечатали // «Вопросы языкознания», - №1,-2001.-с. 85-96 6. Ступин Л.П. Лексикография английского языка. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1979 г. 3. Ступин Л.П. Проблема нормативности в истории английской лексикографии. - М «Высшая Школа», 1985 г.





## 2-TOM, 3-SON

### EDUCATIONAL GAMES USED IN 1ST-2ND GRADE NATIVE LANGUAGE LESSONS, THEIR CONTENT, EFFECTIVENESS AND METHODOLOG

**Rakhimova Rukhsora**

Bux DPI is a tutor at the Faculty of Preschool and Primary Education

**Burkhanova Gulruh Zayniddinova**

BUxDPI is a 1st-year student of the Faculty of Preschool and Primary Education

**Annotation:** In this article, educational games used in 1st-2nd grade mother tongue lessons, their content, effectiveness and methodology are analyzed based on specific sources.

**Key words:** Composition, child, environment, environment, natural phenomena, landscapes, objects, plants, animal world, etc. Introduction: It is known that the game occupies the main place in the activity of a child who is admitted to the 1st grade and takes the first step on the threshold of school. The game is their favorite activity, and they try to combine any activity with the game. Therefore, the teacher allows to increase the effectiveness of the educational process by using it in accordance with the purpose, without squeezing their favorite activity - the game. Play is an integral part of a child's life. Through the game, the child gets to know the environment, natural phenomena, landscapes, objects, plants, animals. Didactic games are of particular importance in the organization of mental and physical activity of students during primary education. Literature review: Literacy teaching is a very important responsibility and at the same time it is an honorable period that will remain in the student's memory for a lifetime. depends on the level of development of skills. That's why special attention is paid to literacy training in educating young people and preparing them for life. In order to master the pronunciation and writing of each sound-letter perfectly, it depends on the formation of independent thinking and creative work skills in the student. Grammatical games used during literacy training encourage students to use their full potential and pay special attention to the subtleties of each sound and letter. Grammatical games used in this period are diverse and provide the student with knowledge, prevent him from getting bored, and create an opportunity to enjoy the work he has done. It is possible to achieve effective results if teaching children of the 1st grade is based on the game. In order not to bore children of this age, to organize reading and writing lessons in an interesting way, to read well, to form and strengthen the skills of writing, it is necessary to properly organize and organize writing lessons in the form of a game. When organizing grammar games with students, it is necessary to involve more students who make mistakes and shortcomings in correct and beautiful writing. When choosing the type of grammar game







## 2-TOM, 3-SON

used during literacy training, it is necessary to take into account the characteristics, interests and capabilities of the students. Advanced primary school teachers working in the schools of our country have created many didactic games for use in the process of teaching literacy to first graders. They are achieving good results using them in the course of the lesson. Elementary school students learn a number of phonetics. Vowels and consonants are distinguished based on pronunciation and comparison. They will get practical knowledge about voiced and unvoiced pronunciation of consonants, paired and unpaired voiced and unvoiced consonants. In this regard, the testing method used in elementary grades allows to understand whether sounds are voiced or voiceless. This, in turn, helps in writing correctly. Also, in these classes, he gets practical knowledge about syllables and their types, stressed and unstressed syllables, and the effect of sounds on each other. Mastering all this creates a number of complications. Because of this, it is useful to use didactic games related to phonetics in primary classes. "Word making" game. The game is played during literacy training. Playing these games allows students to fully understand the importance of sound in word formation. As students participate in this game, the formation of words in different ways arouses great interest. They can directly enjoy the new words they have created. The word formation game is performed on the basis of the content-editing (analytical-synthetic) sound method of literacy education. The second part of this method means to create, build, combine. The word formation game is created by adding different sounds and syllables to the word. This game creates new words by adding sounds to words in different ways. A game of creating a new word by adding one sound to the beginning of the word. Based on the requirement of this game, the student creates a new word by adding a sound from the beginning of a given word. A new word is formed by adding a vowel before a word that starts with a consonant or by adding a consonant before a word that starts with a vowel. Son - o +son o'lka- y o'lka ola - lola ota -bota - nota ayiq- qayiq or- bor - tor o'roq - s o'roq osh - qosh- mosh . In this game, you can make a single word by adding sounds to some words (numbereasy), and you can make a series of words from some words. The game can be played both with the whole class and in the form of a competition formed by groups of students. "Create a new word by adding letters to the end of the word" game. The procedure of the game is almost the same as word building games. Wordforming suffixes expressed by one letter are also involved in the formation of such words. If this game is played during literacy training, it is not required to provide information about word-forming additions. In this period, students do not have knowledge about word structure and word formation. Because primary school students learn their mother tongue more practically. The skills developed during this





## 2-TOM, 3-SON

period are studied as formative additions after learning the structure of words in the next grades. Before starting the game, the teacher explains the order of the game through one or two examples. Aziz –Aziza tog‘- tog‘a sayla – saylov Nur - nura, yelka - yelkan xol-xola olti -oltin varaq – varaqa ot- ota tol- tola k o‘z –k o‘za ola -olam Students of the class are divided into two groups and the notebook is divided into the same number of parts. Each group writes the word they found on the corresponding part of the board. The group with the most words is the winner. The game can be played with the whole class. After a certain time, the game ends. The student who finds the most words is the winner and is encouraged. A game to create a new word by adding letters in the middle of the word. One type of word building game is to add a letter to the middle of a word to form a new word. The game is often played with two-syllable words. A new word is formed by adding a consonant to the middle of a two-syllable word. This game improves the intelligence of students. Understands the difference in meaning of the words in the Uzbek language lexicon. The student's vocabulary increases. Full volitional attention is used to fulfill the game condition. Before starting the game, the teacher explains one or two words on the board. sara - sayra , zira - ziyrak During the game, students can find the following words. Tana– ko‘mak –ko‘lmak qatiq- qattiq qara- qayra mashoq- mashshoq ula - ushla pila - pilla tola -toshla sila – siyla

**SUMMARY:** This game is similar to the game of creating a new word by adding a sound to the beginning of the word. It increases children's activity and sharpens their minds. It can be conducted with the participation of all students, or between rows of desks. The teacher determines how many words should be found for each syllable





2-TOM, 3-SON

REFERENCES:

1. Ahmadovich H. H., Amrullojeva S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 302-304.
2. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.
3. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
4. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIMTARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.
5. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.
6. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334







## 2-TOM, 3-SON

**Ona tili ta'limi jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari**

**Raximova Ruxsora**

**Bux DPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti tyutori**

**Salimova Muqaddas Ortiqovna**

**BUxDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili ta'limi jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari aniq manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'yin, soddalashtirish, murakkablashtirish, o'qituvchi, o'zi o'ylab ko'rish, o'rganilgan mavzular, hisobga olish, mashg'ulot mazmuni, ko'rsatkichlar, qarab tuzish, grammatika, samara, uyushtirilish, ijobiy ta'sir va hokazo.

**KIRISH:** Didaktik o'yinlarni tashkil qilish ham bir qator metodik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu usulni dars jarayoniga tadbiiq etar ekan o'qituvchi har bir mavzuga, uning mazmuniga ijodiy yondashishi zarur. Yana bir muhim tomoni grammatik o'yinlarni uyushtirishda sinf o'quvchilarining xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, qaysi sinfda o'qishi va o'rganilgan mavzularni hisobga olish va mashg'ulot mazmunini ana shu ko'rsatkichlarga qarab tuzish grammatik o'yinlarning samarali uyushtirilishiga ijobiy ta'sir qiladi. O'rganilayotgan grammatik tushunchalarni tez va mustahkam o'zlashtirib olish imkonini beradi. Grammatik o'yinlar grammatikaning qaysi bo'limi yuzasidan o'tkazilishiga qaramay, ular tasodifan bo'limasligi kerak. O'qituvchi unga ham darsga tayyorgarlik ko'rganday puxta hozirlik ko'rish lozim.

**ADABIYOTLAR SHARHI:** Har qanday grammatik o'yin uyushtirilar ekan unga bolalar tayyor bo'lishlari kerak. Aks holda bola bajarilishi rejalashtirilgan ishning mazmunini tushunmagan holda unga kirishadi. O'zi lozim ko'rgan yo'nalishda ishga kirishadi. Bu holat o'quvchining intellektual holatini o'stirmaydi. Bolani chalg'itib qo'yadi. Agar o'yinga bir necha bor shunday kirishilaversa, bunday mashg'ulot zerikarli bo'lib qoladi va oqibatda bolaning bilish faoliyatiga aks ta'sir qiladi. Uning oldini olish maqsadida o'quvchilarga beriladigan har bir topshiriqning mazmuni to'liq tushuntirilishi, o'xshash misollar bajarib ko'rsatilishi, namuna berilishi lozim. Grammatik mumkin. Buni o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bolalarga o'yinlar bolalarning bilim darajasiga qarab murakkablashtirilishi yoki soddalashtirilishi fonetikadan so'zning oxiriga bir tovush qo'shib yangi so'z hosil qilish o'yini o'tkazilganda so'zga qo'shilgan tovushni so'zning tarkibi bo'yicha tahlil qilish topshirilsa o'yin murakkablashadi. Berilgan so'zlar ishtirokida





## 2-TOM, 3-SON

gap tuzish o'yini o'tkazilganda ishni qaysi so'zdan boshlab ko'rsatilsa o'yin soddalashadi.

*ikkinchi yo'nalish* - o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rgatish, adabiy talaffuz me'yorlari, shuningdek, lug'aviy sinonimika, qo'shimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish; - *uchinchi yo'nalish* - o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan. Ana shundan kelib chiqib, ona tili ta'limining asosiy maqsadi: ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog'i darkor.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari o'rta maktabning o'zbek tili darsliklarida berilgan. Mazkur topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi lozim. Ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o'yin-topshiriqlardir. Bu turdagi topshiriqlar o'quvchilardan zukkolikni, bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. Ona tili darslarining qiziqarli o'tishida o'yin-topshiriqlarning ahamiyati juda katta. Biroq "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da grammatik o'yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlanmagan. O'yin-topshiriqlarga hos bo'lgan jihat shundan iboratki, u ko'pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunida, o'quvchi va guruhlarga rag'bat yoki ballar berilishi, shubhasiz, o'quvchilarda topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshirishga sabab bo'ladi. Natijada, o'quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha oshadi. Shu bilan birga, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanish ehtiyojini tug'diradi. Shunini inobatga olgan holda, o'qituvchi darslarining samarali bo'lishi uchun turli o'yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi davr talabi ham, fan o'qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Shularni hisobga olgan, holda ona tili darslarini o'tishda ishlatish mumkin bo'lgan ayrim grammatik o'yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini ko'rib chiqamiz. Bunday grammatik o'yinlarni yanada ko'plab o'ylab topish va ulardan dars jarayonida foydalanish mumkin. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog'liq. Ma'lumki, o'yin-topshiriqlar o'quvchilar malaka va ko'nikmalariga ko'ra, murakkablashadi.

**Qayta xotirlash tipidagi o'yin topshiriqlar.** O'tilgan mavzularni mustahkamlash





## 2-TOM, 3-SON

hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida bunday o'yin- topshiriqlardan ko'proq foydalaniladi. Masalan, "Atoqli va turdosh otlar" mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida "Kim g'olib?" o'yin-topshirig'idan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi: biri atoqli otlarga, ikkinchisi turdosh otlarga misol topishadi. Ma'lum bir belgilangan vaqt ichida ko'p misol topgan g'olib sanaladi. O'qituvchi doskaga kundalik, surat, kinofilm kitob, gazeta, jurnal, so'zlarini alohida-alohida yozib qo'yadi. Sinf olti guruhga bo'linib (o'quvchilar soni hisobga olinishi zarur. Agarda guruhlarga teng bo'linmaydigan bo'lsa, guruhlarning sonini kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin), ulardan shu otlarga misollar yozish talab qilinadi. Guruhlarning har bir a'zosi o'ziga qarashli so'zga bitta-bittadan misol yozadi. Tez va to'g'ri yozgan guruh g'olib sanaladi. G'oliblar, albatta, rag'batlantirilishi kerak. Istalgan mavzuni mustahkamlashda bunday o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin. Yoki o'quvchilarning o'zaro bog'lanishli yozma nutqini sinash maqsadida "So'zlar bizdan, matn tuzish sizdan" o'yinini o'tkazish mumkin.

Bunday topshiriqlar o'quvchilardan ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. "Ijodkor" o'yin-topshiriqdan "Ravish" mavzusini o'tishda samarali foydalanish mumkin. Bu grammatik o'yinda sinf ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga sifat so'z turkumi ishtirok etgan gaplarga misol aytish, ikkinchi guruhga esa shu gaplardagi ot(lar)ni ravish bilan almashtirib gap tuzish topshiriladi. *Masalan:* Birinchi guruh vakili yozadi: Men olimpiadada yaxshi insho (qanday insho?) yozdim. Ikkinchi guruh davom ettirib: Unda bizning guruh yaxshi ishtirok etadi (qanday ishtirok etdi?). Shu yo'sinda davom ettiriladi. Bu o'yinni o'quvchilar o'rtasida yoki parallel sinflar o'rtasida "so'z mushoirasi" tarzda davom ettirsa ham bo'ladi. Ona tili ta'limi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi. Solishtirib qiyoslanadi, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi, umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik o'sish yuzaga kela boradi. O'quvchi tafakkuri taraqqiyotida bunday topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon o'sish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayondir. Topshiriqlar shunday yo'sinda joylashtirilishi lozimki, o'quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya'ni o'quvchi tafakkurini o'stiruvchi topshiriqlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi zarur: - o'quvchini izlashga, fikr qilishga, noma'lumni topishga undasin; - o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirishi zarur; - masalaning murakkablasha borishi o'quvchi aqlli, farosatini o'stira borishi kerak; - bu jarayonning kechishi o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini hosil qila borishi lozim; - topshiriqlarni bajarish jarayoni







## 2-TOM, 3-SON

o'quvchida o'ziga ishonch, o'zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart. Yangilangan ta'lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo'limlariga mo'ljallangan mashg'ulotlarda darslar ta'rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya'ni o'quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmasdan har bir mavzu uchun mo'ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o'rinda o'qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o'tishi, ya'ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. 5-sinfda fonetika bo'limi o'tilayotganda quyidagi grammatik topshiriqlardan foydalanish mumkin: 1-topshiriq. *i-u, a-o, o'-u, i-e, b-p, d-t, z-s, j-ch juftliklari bilan farqlanuvchi so'zlar hosil qiling. Topshiriq. x-h tovushlari bilan farqlanuvchi so'z juftlari hosil qiling.* H fonemasining talaffuziga e'tibor bering. Topshiriq. *ng harfiy birikmasiga so'zlar toping va ularni bo'g'inlarga ajrating.*

Topshiriq. *Yaxshi* va *Yomon* so'zlarining o'xshash va farqli tomonlarini toping. O'xshash tomonlari: 5ta harf, 2ta unli, 3ta undosh, 2ta bo'g'in, urg'u oxiriga tushadi, 5ta tovush. Farqli tomoni deysizmi? Ma'nosi-chi? Uning antonimligichi?

Topshiriq. *x* tovushli so'zlar zanjirini tuzing. Baxt - taxt - tuxum - mirrix - xayol - laxtak - kimxob - baxmal - laxta - axta - axir - ruxsat - taxta - axloq - qix - xafa - axir - ruxsat - taxt - taxlit - taxmin - narx - xabar - ruxsatnoma - axtar - ruxsor. O'yin bolalik dunyosiga funksional kirish sifatida xizmat qiladi va vositachilik, bolaning shaxsiyatining shakllanishida va harakat, ijtimoiy, aqliy va kognitiv barcha tomonlarning qurilishida muhim ahamiyatga ega. Har xil oyin faoliyati orqali bola shakllar, ranglar va o'lchamlarni taniydi va atrofdagi narsalarni ajratib turadigan narsalarga, ularning munosabatlari va funktsiyalari va ahamiyatligiga olib keladigan narsalarga tayanadi va bu uning aqliy bilimlarini dunyo haqida turli xil ma'lumot shakllari bilan boyitadi. Fikrlashning inson hayotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda, zamonaviy ta'lim yo'nalishlari ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqishga va o'quvchilarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarga turli fikrlash ko'nikmalarini mashq qilish uchun ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu sababli bolalarda fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bolalar uchun bolalar bog'chalari dasturlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilar uchun millatlarning ustuvor vazifasini bajaradi va shuning uchun uning ongini faollashtirishda uning muhim ahamiyati bor.

ta'limiy o'yinlar bolalarning bilim darajasida bo'lishi kerak;

v) ta'lim o'yinlari jo'shqin va diqqat bilan bog'liq bo'lishi kerak, qiziqishini





## 2-TOM, 3-SON

oshirishi kerak;

oddiy til bilan yaratilgan va bola tomonidan tushunilgan.

bolaning ehtiyojlari, moyilligi va uning atrofidagi dunyoni kashf etish istagi bilan bog'liq.

**XULOSA:** Yuqorida aytilganlarga qo'shimcha ravishda, boshlang'ich sinflarda bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlar uning hayotining voqeligi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak, shuningdek, unga sezgi va ong va o'zaro bog'liq bo'lgan atrof-muhitdan osonlikcha seziladigan aniq misollarni aniqlash imkoniyatini berishi kerak. Maktab o'qituvchisi idroklar dunyosidan narsalar va harakatlarning belgilarini ko'rsatadigan dunyoga asta-sekin o'tishga yordam beradigan, sezgi va taxminlar asosida qurilgan fikrlarni real operatsiyalar asosida qurilgan fikrlash o'yinlarini rejalashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Safarova va boshqalar darsligi 1-sinf AlifbeMa'naviyat|| nashriyoti –2019 y.
2. G'afforova T. , Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf, 2003. –54 b.
3. G'afforova T. , Nurullaeva Sh. , Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.–Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.



2-TOM, 3-SON

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

**EFFECTIVENESS OF USING DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN  
MOTHER LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY EDUCATION**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОЖДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ  
ОБРАЗОВАНИИ**

**Raximova Ruxsora**

Bux DPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti tyutori

**Xayrullayeva Maftuna**

BUxDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonida didaktik o'yinlarning katta ahamiyatga egaligi hamda boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar haqida ma'lumotlar haqida so'z boradi. Didaktik o'yinlarning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, maktab, ona tili, xotira, aqliy faoliyat, bilimdidaktik o'yin, so'z tuzish, sirli kataklar, so'z, sehrli katak.

**Abstract.** This article talks about the great importance of didactic games in the process of teaching primary school students and information about didactic games used in mother tongue classes in primary schools. Information is provided about the importance of didactic games in improving the effectiveness of the lesson.

**Key words:** elementary school, school, mother tongue, memory, mental activity, knowledge didactic game, word formation, mystery boxes, word, magic box.

**Абстрактный.** В данной статье говорится о большом значении дидактических в процессе обучения младших школьников и информация о дидактических играх, используемых на уроках родного языка в начальной школе. Приведена информация о значении дидактических игр в повышении эффективности урока.





## 2-TOM, 3-SON

**Ключевые слова:** начальная школа, школа, родной язык, память, умственная деятельность, знания. дидактическая игра, словообразование, загадочные коробочки, слово, волшебная шкатулка

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham bir tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'quvchining o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilish sohasidagi aktiv faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Bugungi kunda respublikamizda Prezidentimiz rahbarligida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqdaki,



## 2-TOM, 3-SON

inson o'z faoliyatida kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishda foydalanuvchi sifatida o'zini namoyon qilish shart bo'lib qolmoqda. Shuning uchun axborot texnologiyalardan foydalanishga zaruriyat tug'iladi.,,So'z tuzish" o'yini . O'yin savod o'rgatish davrida o'tkaziladi. Bu o'yinlarni bajarish o'quvchilarga tovushning so'z hosil qilishidagi ahamiyatini to'laroq tushunib olish imkonini beradi. O'quvchilar ushbu o'yinda ishtirok etar ekan, so'zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo'lishi katta qiziqish uyg'otadi. O'zlari hosil qilgan yangi so'zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo'ladi. So'z tuzish o'yini savod o'rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. So'z tuzish o'yini ham aynan so'zga xilma-xil tovushlarni, bo'g'inlarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu o'yinni bajarishda so'zga turli hil usullar bilan tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi. «**Sirli kataklar**» o'yini O'qituvchi ko'rgazmani ko'rsatib, kerakli harflarni qo'yib so'zlarni o'qishni aytadi. Bunday ko'rgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor kitobning sahifalarida o'rganilayotgan tovush va harf bilan bog'liq narsa –buyumlarning rasmi berilgan. Bu o'yinni uyushtirishda o'quvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng foydalanish an'analari o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uchun tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yo'nalishda foydalaniladi: O'yin - muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda o'quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o'yinlar o'quvchining turli-tuman qobiliyatlari, idroki, nutq va diqqatining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo'lgan o'yinlar yaratilmoqda. Qoidalar va tayyor o'yin mazmuni o'quvchilarni o'yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Didaktik o'yinlari uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashhur harakatli) o'yinlari



**2-TOM, 3-SON**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. R. Safarova va boshqalar darsligi 1-sinf AlifbeMa'naviyat|| nashriyoti –2019 y.
2. G'afforova T. , Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf, 2003. –54 b.
3. G'afforova T. , Nurullaeva Sh. , Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.–Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.
4. Yunusov Q.Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyaAndijon, 2006.
5. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.





2-TOM, 3-SON

EDUCATIONAL GAMES ORGANIZED IN 3RD-4TH GRADE MOTHER  
TONGUE CLASSES AND PECULIARITIES OF THEIR USE

Rakhimova Rukhsora

Bux DPI is a tutor at the Faculty of Preschool and Primary Education

Salimova Munisa Bakhtiorovna

BUxDPI is a 1st-year student of the Faculty of Preschool and Primary Education

**Abstract:** In this article, educational games used in 3rd-4th grade mother tongue lessons, their content, effectiveness and methodology are analyzed based on specific sources

**Abstract:** In this article, educational games used in 3rd-4th grade mother tongue lessons, their content, effectiveness and methodology are analyzed based on specific sources

**Introduction:** Morphological materials are widely studied in elementary grades. During four years of study, students will gain some knowledge about the word and its meanings, word form, morphological structure of the word. and acquires theoretical and more practical knowledge on his own character. Primary school mother tongue curriculums are structured based on the principle of a stepwise sequence, taking into account the characteristics of students, their mental, moral and physical growth from year to year. Based on this, the part of each subject that is easily mastered by students is studied in the lower grades, and the more complex part is studied in the next grades. Some word groups are studied in all grades of primary education. First of all, its main sign is studied, which means the name, sign, number and movement of an object, and the additional sign is mastered, as well as how to answer a question based on the acquired knowledge. As the students progress from grade to grade, they learn the specific signs of word groups. Such study of educational material requires repetition of knowledge acquired in one class in subsequent classes

Review of the literature: The knowledge given to the student is based on the knowledge of the children in the previous classes. This makes it possible to organize various grammar games based on the student's previous knowledge. Because the student can actively participate in the organized grammar game only when there is a certain level of knowledge and skills on the subject. On the other hand, the student takes a creative approach to the training based on the knowledge he has and performs activities. In morphology, students learn the similarities and differences between each grammatical phenomenon. Different grammar games can be organized by comparing them. Such an activity can be used in every lesson devoted to the study of morphology. For example, it is possible to compare nouns with a similar noun when passing them, and to compare them when passing agreeable adverbs. you can organize a grammar game with the help of the suffix. In elementary grades, the term word is used



## 2-TOM, 3-SON

instead of morphology. Pupils also learn lexicology and word formation knowledge in the vocabulary section, so we considered it necessary to provide games related to the above sections of linguistics in the complex of morphological games. "Find the foreign word" game This game encourages you to pay attention to the dictionary meaning of the word. Strengthens the student's memory. Gets used to thinking quickly and answering quickly. It can be conducted on various topics. When playing such a game, words that have the same commonality are chosen. 1. Tashkent, Andijan, Karshi, Termiz, Baku. (Baku is a foreign word. All cities are located in Uzbekistan, and Baku is outside our country). 2. Oybek, Hamid Olimjon, Babur, Gafur Ghulam, Kamil Yashin. (Foreign word Babur. All of them lived and created in the 20th century, and Babur is a representative of classical literature). 3. A bus, a car, a tractor, an airplane, a motorcycle (Plane is a foreign word. Others walk on the ground. An airplane flies to the sky). 4. Noun, adjective, number, pronoun, participle, verb. (the participle is foreign. All words indicate groups of words. The participle is a part of a sentence). "Find the place of the word" game This game is held in order to strengthen the learned rules about capitalization of famous nouns. Through the game, the spelling of names and surnames of people and places with capital letters is strengthened. Before the game, students are given cards. A poem or sentence can be written on the cards. Capitalized words in bold text are omitted. A second card is given to the student. The words that were dropped were written on it. The student must read the omitted words in place of the dots according to the meaning of the sentence. The child who correctly reads the omitted word is the winner of the game. 1. card ... .... first in the mother tongue ... they wrote (five epics). SHE IS.... was born. Omitted words: "Hamsa" in Herat, Alisher Navoi

2. card. ... he sat on his father's throne at the age of twelve and wrote a work called ... He ... died. Omitted words: "Baburnoma" in Babur, India. After the students have played the game a couple of times and gained a certain level of skill, other words can be mixed up on both cards. Sometimes it is possible to write the words written on both cards on the same card. This will teach the student to choose the right noun. The student who completes the task quickly and correctly will be the winner of the game and will be encouraged. Such a game can be organized in the way of reading by putting the omitted words in their place. During the game, children pay attention to the meaning of the word. Below are poems with two stanzas, both stanzas of which are given to two students. The omitted words are given in full on both cards. The student chooses the right word. 1st card 2nd card Smallpox Muhammadjon Koshakov's poem. U ochildi ... chog'ida Qarab tursam, u gunafsha, Erka chechak, oy chechak. . . . ham suluvroq. . . . deb ataladi, . . . keldi deb chorlovchi, Gullar ichra kelinchak. G o'yoki . . . qo'ng'iroq. Omitted words: Loladan Boychechak, jajji, tong



## 2-TOM, 3-SON

bahor. Mehmon Ollobergan Polat's poem 1st card Bog'da... dugona Hulkar bilan... . Ikkalasi o'tirib, . . mehmon-mehmon. 2 nd card. Patnis bezadi... , Olma, ....., konfet qo'yib. O'yin bahonasida Zeboxon.... to'yib. Omitted words: inoq, o'ynadi, oldi, nok, Zeboxon, Hulkar. Students play this game as follows. 1st card 2nd card Smallpox Muhammadjon Koshakov's poem.

U ochildi tong chog'ida Qarab tursam, u gunafsha, Erka chechak, oy chechak. Loladan ham suluvroq. Boychechak deb ataladi, Bahor keldi deb chorlovchi, Gullar ichra kelinchak. Go'yoki jajji qo'ng'iroq. Mehmon Ollobergan Po'lat she'ri 1-kartochka Bog'da inoq dugona Hulkar bilan Zeboxon. Ikkalasi o'tirib, O'ynadi mehmon-mehmon. 2-kartochka. Patnis bezadi Hulkar , Olma, nok, konfet qo'yib. O'yin bahonasida Zeboxon oldi to'yib. Work on synonyms and antonyms

**CONCLUSION:** Elementary school students get to know the dictionary meanings of words practically from the 1st grade. In order to form their knowledge, various independent activities are carried out. In order to strengthen students' knowledge of synonyms, antonyms, and homonyms, and to increase their interest, a number of grammar games can be used that encourage children to think, reason, and compare words.

### REFERENCES:

1. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 302-304.
2. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.
3. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
4. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIMTARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.





## 2-TOM, 3-SON

### O'quv jarayoning bosqichi va o'quv materialining mohiyatidan kelib chiqqan holda turli murakkablikdagi o'quv materiallaridan foydalanish- pedagogik kreativlikning muhim jihati

**Madjitova Kamola Azlar qizi** – Chirchiq shahar kasb-hunar maktabida xorijiy tili (ingliz tili) o'qituvchisi

**Anotatsiya:** ushbu maqolada o'quv jarayoni, uning bosqichlari, o'quv jarayonida turli murakkablikdagi o'quv materiallaridan foydalanish va turli murakkablikdagi o'quv materiallaridan o'quv jarayonida foydalanish pedagogik kreativlikni yanada yuqori bosqichga ko'ratishi haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quv jarayoni, bosqich, o'quv materiali, murakkablik, ijodkorlik, pedagogic kreativlik, muhim jihatlar.

**Аннотация:** в данной статье учебный процесс, его этапы, использование в учебном процессе учебных материалов различной сложности, использование в учебном процессе учебных материалов различной сложности выводят педагогическое творчество на более высокий уровень.

**Ключевые слова:** учебный процесс, этап, учебный материал, сложность, креативность, педагогическое творчество, важные аспекты.

Hozirgi globallashuv yuqori nuqtaga chiqqan ushbu davrda har qaysi jamiyat ijodkor, erkin fikrlovchi shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol va ayni damda davr talabi, albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar buni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innovatsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida "Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida" bir qator vazifalar



## 2-TOM, 3-SON

belgilab berildi. Xususan, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari ularga birlashtirilgan maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalarida yaqindan hamkorlik qiladi, shu jumladan ta'lim muassasalarida mahorat darslari hamda talabalar amaliyotini tashkil etadi, ushbu muassasalarga o'quv-metodik jihatdan yordam ko'rsatadi.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativlikning quyidagi jihatlarini ilgari surgan:

- muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qaramaqarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash.

Lotinchada "kreativlik" tushunchasi quyidagicha. "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir. Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar. Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual usullari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni va o'z ichiga oladi. Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi. Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyatsizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni



## 2-TOM, 3-SON

tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi. Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o'quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo'lgan talablarni qo'yishimiz kerak.

Shuningdek, kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
  2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
  3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
  4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish.
- O'quv jarayonida qo'llaniladigan o'quv materiallari quyidagilar:

1. Fanlar bo'yicha sillabus;
2. O'quv uslubiy majmua;
3. Ma'ruza matni;
4. Amaliy va seminar darslar mavzulari va qisqacha mazmuni;
5. Mustaqil ta'lim mavzular ro'yhati;
6. Oraliq va yakuniy nazorat savolnomasi.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy kabi uch guruhga bo'linadigan metodlarning quyidagi variantlari qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganida ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;





## 2-TOM, 3-SON

- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- u umr bo'yi o'z bilimini uning o'zigina boyitishiga ishonch paydo bo'ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs jamiyatda o'zining o'm ini tezroq topib olishiga muhit yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022-yildagi 289-son qarori
2. A.O Proxorov, G.N. Gening. O'quv mashg'ulotlarida yosh o'quvchilarning aqliy holatlarining xususiyatlari /Psixologlar savollari/. –M.: 1998 y
3. Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking in teaching physics //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020.
4. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P
5. Qosimova Aziza Farhod qizi. Til va adabiyot ta'limida innovatsion va integratsion yondashuv. Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2022-yil.873-876 [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=DuLpmPQAAA AJ&citation\\_for\\_view=DuLpmPQAAA AJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DuLpmPQAAA AJ&citation_for_view=DuLpmPQAAA AJ:2osOgNQ5qMEC)
6. Avazova D.E. PIRLS dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tizimi topshiriqlar asosida badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatish [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=lfh6SfgAAAAJ&citation\\_for\\_view=lfh6SfgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=lfh6SfgAAAAJ&citation_for_view=lfh6SfgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC)



## 2-TOM, 3-SON

### TA'LIMDA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK AHAMIYATI

**Madjitova Kamola Azlar qizi – Chirchiq shahar kasb-hunar maktabida  
xorijiy tili (ingliz tili) o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada etibor talabalarda gender madaniyatni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatidaligi va xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash to'g'risida, gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik esa bevosita gender tadqiqotlari doirasida shakllantirish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** farmon, gender madaniyatni, ijtimoiy-pedagogik, xotin-qizlar, ehtiyoj, muhofaza, gender va inson, ijtimoiy-siyosiy, rahnamo, tashabus, qonun, manfaat.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda o'quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quv jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi. Mamlakatimizda XX asrning oxirlarigagina kelib, ta'lim jarayonida gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olish haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. Gender farqlar hamda o'xshashliklar ta'lim jarayonida qiz va o'g'il bolalar o'quv faoliyatidagi o'xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. U yoki bu jinsga mansublik o'quvchi shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim tizimidagi gender tenglikni ta'minlashning huquqiy asoslari yaratilgan. 2020 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida barcha o'quv muassasalarida ta'lim oluvchi, kasb tanlovchi o'g'il va qiz bolalarning teng huquqliligi ta'minlangan<sup>2</sup>.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda b'lgani singari ta'lim-tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat darslarida o'quvchilarda gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish muammolari hozirga qadar o'rganilmagan. Buning asosiy sabablaridan biri, ta'lim mazmuni va o'quv jarayonining gender, ya'ni o'g'il va qiz bolalar orasidagi jinsiy, jismoniy, ruhiy farqlar, qiziqish va intilishlar, fiziologik o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda amalga oshirilmayotganligidadir. Bu esa biz tadqiqot mavzusi sifatida tanlagan muammoning dolzarbligini belgilaydigan eng muhim omildir. Gender



## 2-TOM, 3-SON

tushunchasining ijtimoiy pedagogik jins sifatida talqin etilganligi, ya'ni o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti sifatida ijtimoiy-pedagogik ma'nodagi gender tarzida farqlanganligi ham tadqiqotning muhim jihatlaridan biridir.

XXI asrda uzluksiz ta'lim strategik ahamiyat kasb etib, shaxs va jamiyat hayotida asosiy mavqeni egallaydi. Shaxs faqatgina gender tenglik va o'ziga xoslik hisobga olinib tashkil etilgan ta'lim jarayonida olingan bilim yordamida uzluksiz texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishi mumkin. Bu esa nafaqat mehnat qurollarining mukammallashuvini, balki yangi bilimlarni egallash qobiliyati va kasbiy faoliyatni puxta o'zlashtirishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatleri, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda o'quvchilar ongiga gender me'yorlar, mezonlarni singdiradilar. Bu qarashlar o'quvchilarda haqiqiy ayol, haqiqiy erkak qanday bo'lishi to'g'risida dastlabki tasavvurlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Keyinchalik ushbu gender me'yorlar o'quvchilarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirish bu – o'quvchi tomonidan o'zi yashaydigan jamiyat gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatleri qaror toptirishdan iborat.

Boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik tarkibi 90% ayollardan iborat bo'lib, (bolalar bog'chasidan universitetgacha) o'quv muassasasi maqomi oshib borishi bilan o'qituvchi ayollar soni kamaymoqda. Umuman olganda, zamonaviy Rossiya oliy ta'lim va fanning feminizatsiyasi bilan ajralib tursada, universitet professorlari orasida bugungi kunda erkaklar (bir qator OTMLlarda, masalan, pedagogik, erkaklar soni 20% dan oshmaydi), ilmiy laboratoriyalarning kam haq to'lanadigan tarkibi deyarli ayollardan iborat. Shu bilan birga, erkak o'qituvchilarning asosiy o'rtacha ish haqi ayol o'qituvchilarning o'rtacha ish haqidan 35% yuqori.

Ayollar boshchiligidagi o'quv muassasalari juda muhim identifikatsiya manbai hisoblanadi. Rossiyalik tadqiqotchilar maktab o'quvchilari orasida bizning vatandoshlarimiz matematika, fizika, jismoniy tarbiya, kompyuter bilimlari o'g'il bolalar uchun eng muhim deb bilishlarini ta'kidladilar, qizlar uchun esa iqtisodiyoti, adabiyot va tarix, oilaviy hayotning etikasi va psixologiyasi, jinsiy ta'lim. Shunday qilib, jinsga qarab kasb tanlash dasturlashtirilgan. Bundan tashqari, mehnat darslarida maktablar va bilim yurtlarida ayollar va erkaklarning uy vazifalari stereotiplari o'rnatiladi. Tegishli rollarni





## 2-TOM, 3-SON

bo'lg'usi o'qituvchilar nafaqat ularning oilalarida, balki pedagogik universitetlarda ham o'zlashtiradilar.

Predmetlarning tarkibi. Erkaklarning stereotipik qiyofasi faol va muvaffaqiyatli me'yorlar sifatida va ayollar esa xuddi "ko'rinmas" (ayollar shunchaki mavjud emas, taqdimotda tushib qolgan) yoki sezilmas, faol bo'lmagan va qaramlik o'quv materiallari va o'rta va 5 va oliy ma'lumot darajasida o'qitish uchun ishlatiladigan maxsus manbalarda takrorlanmoqda. Ta'lim materiallarida ayollarning bunday noto'g'ri taqdimoti oqibatlarini quyidagicha. Birinchidan, talabalar bu standart bo'lgan erkaklar va jamiyat va madaniyatda eng muhim rol o'ynaydigan odamlar degan xulosaga kelishlari mumkin. Ikkinchidan, talabalarning ayollarning madaniyatga qanday hissa qo'shganligi, shuningdek, an'anaviy ravishda ayollarga mos deb hisoblanadigan hayotimizdagi sohalarda to'g'risida bilimlari cheklangan. Uchinchidan, individual darajada, o'quv dasturlaridagi stereotiplar erkaklarning yutuqlariga ko'proq rag'batlantiriladi, ayollar esa yetakchilik va boshqaruv bilan bog'liq bo'lmagan xulq-atvor modellarini o'rganadilar. Aloqa jarayonlari. O'qitish uslubi, o'quv auditoriyadagi munosabatlar shakllari o'quvchilarning gender ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi va ko'pincha ayollarni bilim olish va ifoda etish usullari yuqori baholanmaydi. 1982-yilda AQSHda R.Xol va B.Sendler ta'limdagi og'zaki (verbal) va og'zaki bo'lmagan (noverbal) aloqa amaliyotini birinchi bo'lib tadqiqot olib bordi. Ushbu tadqiqot maktablar va kollejlarda, kattalar uchun o'quv imtihonlarida va universitetlarda o'tkazilgan shunga o'xshash loyihalarning klassik namunasiga aylandi.

Shuningdek, o'qituvchilar analitik fikr yuritish, o'zlarining asl g'oyalarini ilgari surish, an'anaviy konvensiyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini namoyish etadigan o'quvchi qizlarga nisbatan past baholar berishlari aniqlandi. Shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan o'g'il bolalar o'qituvchilar orasida yuqori reytingga ega. Shunga o'xshash hamkorlik amaliyoti universitet ta'limi darajasida ham davom etmoqda. Yashirin o'quv dasturi metakommunikatsiya bilan ijtimoiy nazorat amalga oshiriladigan til sifatida belgilanadi. Birinchidan, bu o'qituvchilar o'g'il bolalar o'zlarini ko'rsatishlari va faolligini ifoda etishlari; qizlarda esa – itoat etishlari, chiroyli tashqi ko'rinishga ega bo'lishi rag'batlantiriladi; ko'proq individual mashg'ulotlar o'g'il bolalar bilan o'tkaziladi, qizlarga qaraganda ko'proq vaqt ularga bag'ishlanadi. Bundan tashqari, o'qitishning dominant shakllari erkaklar bilan aloqa qilish usullariga tayanadi. Masalan, test imtihonlari, individual hisobotlar, baho olish musobaqalari "jasorat" sifatida rag'batlantiriladi. Qizlar ham, o'g'il bolalar ham bundan aziyat chekishadi, chunki ularning ikkalasi ham tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini, savol berish, jamoaviy muhokama qilish va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayollar va erkaklarning qobiliyatlari va ta'lim imtiyozlari to'g'risidagi gender stereotiplarining mavjudligi, shuningdek, tadqiqot



## **2-TOM, 3-SON**

natijalarini ommalashtirishga ta'sir qiladi. Ayollar va erkaklar uchun yangi imkoniyatlar, ta'limdagi gender tenglik tamoyillari aks ettirish reflektiv o'yin va erkinlik kenglik sohasida, bu yerda ular mushtra – burg'ulash, tajovuzkorlik va “qo'lga o'rgatish” boshqa narsalardan bosh tortib, o'rniga muloyimlik, nafislik va xurmat amalga oshirilishi mumkin. Talaba va o'qituvchi o'zgarishlarni birgalikda va faol ravishda rejalashtiradigan, yutuqlarni nazorat qiladigan va erishilganlarni sifatini baholaydigan, tushunmovchiliklarni ochiq muhokama qiladigan va ularni hal qilish yo'llarini topadigan sheriklar sifatida ishlaydi. Shu sababli, o'quv jarayonini tashkil etish o'zi ochiqlik va moslashuvchanlikni, an'anaviy tajribalar bilan bir qatorda eksperimentlar va alternativ yechimlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон. <https://lex.uz/docs/5013007>  
(Закон Республики Узбекистан, О'РҚ-637 от 23.09.2020. <https://lex.uz/документы/5013007>)
